

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

2025-yil, 7-son

Urganch-2025

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.O‘ljayeva – Tarix fanlari doktori, professor

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

U.Jo‘raquloov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Afoqova – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

G.Matyoqubova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.

M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.

O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).

L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).

V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).

H.H.Tadiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№ 6 (27), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

G'.ATAJANOV. Mamluklar davlati sultoni Sayfiddin Qutuz tarixiga oid manbalar tahlili.	4
F.ABDUXOLIQOV. Alisher Navoiy siymosi sharq miniatyuralarida.	12
S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD. Xorazm jadid maktablarida tatar pedagoglarining ishtiroki va faolligi.	18
F.JUMANIYAZOVA. Xorazm viloyati davriy matbuoti faoliyati va targ'ibot yo'nalishlari.	25
Y.XAMDAMOVA. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Xorazm viloyatida ichki ishlar organlari faoliyati.	31

FILOLOGIYA

M.ESHMURODOV. Bayoniy tarixiy asarlarining lingvistik xususiyatlari. ..	36
S.RAXIMOVA. Ahmad Tabibiy devonlarining nomlanishi xususida.	43
M.OTAMURATOVA. Ayol ruhiyati talqinida hijron va ayriliq motivlarining aks etishi.	61
A.MATNIYAZOV, A.ALLAMBERGENOV. Beruniy shaxsiyati beqiyos, ilmiy-nazariy fikrlari esa bebahodir.	65
B.SODIQOV. Qirqinchi afsona.	71

Muassis:

Urganch innovatsion universiteti NTM

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Xorazm viloyat bo'limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

TARIX**MAMLUKLAR DAVLATI SULTONI SAYFIDDIN QUTUZ
TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI**

**G'ulomjon
ATAJANOV,**
Respublika Ma'naviyat
va ma'rifat markazi
Xorazm viloyati bo'limi
bosh mutaxassisi

UO'K 519.3

Annotatsiya: Maqolada O'rta asrlarda musulmon olamining siyosiy, madaniy, ilmiy markaziga aylangan, Anushtegin-Xorazmshohlar sulolasining vakili Sayfiddin Qutuz boshchiligida mo'g'ul bosqiniga qarshi kurashgan mamluklar davri tarixiga, bevosita Sayfiddin Qutuzning hayoti va faoliyatiga oid o'rta asr manbalari tahlil etiladi.

Аннотация: В статье анализируются средневековые источники, посвященные истории мамлюкского периода, в течение которого мусульманский мир стал политическим, культурным и научным центром. Особое внимание уделяется Сайфиддину Кутузу, представителю династии Ануштегин-Хорезмшахов, возглавлявшему сопротивление монгольскому нашествию. Основное внимание в исследовании уделяется первоисточникам, освещающим жизнь и деятельность Сайфиддина Кутуза.

Annotation: The article analyzes medieval sources related to the history of the mamluk period, during which the Muslim world became a political, cultural, and scientific center. Particular attention is given to Sayfiddin Qutuz, a representative of the Anushtegin-Khwarazmshah dynasty, who led the resistance against the Mongol invasion. The study focuses on primary sources concerning the life and activities of Sayfiddin Qutuz.

Kalit so'zlar: Taqiyuddin Ahmad Maqriziy, Shihobiddin Maqdisiy, Ibn Tangriberdi, Ayyubiylar, mamluklar, Sayfiddin Qutuz, Anushtegin-Xorazmshohlar sulolasi, mo'g'ullar, Ayn Jalut, Beybars Bunduqdoriy.

Ключевые слова: Таки ад-Дин Ахмад аль-Макризи, Шихаб ад-Дин аль-Макдисси, Ибн Тагрибирди, Айюбиды, мамлюки, Сайфиддин Кутуз, династия Ануштегинидов-Хорезмшахов, монголы, Айн Джалут, Байбарс аль-Бундукдари.

Key words: Taqi al-Din Ahmad al-Maqrizi, Shihab al-Din al-Maqdisi, Ibn Taghribirdi, Ayyubids, mamluks, Sayfiddin Qutuz, Anushteginid-Khwarazmshah Dynasty, mongols, Ayn Jalut, Baybars al-Bunduqdari.

O'zbekistonda milliy va jahon tarixini tadqiq etish borasida so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ajdodlarimizning yurtimizdan tashqarida yuritgan siyosiy, ilmiy, madaniy faoliyatini o'rganish

millatlar va mamlakatlar o'rtasidagi tarixiy aloqalarni qayta rivojlantirishga zamin hozirlashini inobatga olgan holda, bunday shaxslar faoliyati chuqur o'rganilmoqda. Ana shunday tarixiy shaxslardan biri Anushtegin-Xorazmshohlar sulolasining vakili, Misr mamluklar davlati sultoni Sayfiddin Qutuzdir. Sayfiddin Qutuz va umuman mamluklar davri O'rta asrlarning eng keng yoritilgan va eng ko'p o'rganilgan davri sanaladi.



O'rta asr manbalarida Sayfiddin Qutuz hayotining yoritilishi.

XII-XIV asrlarda Misr, Yaqin Sharq va Kichik Osiyoda hukmronlik qilgan Ayyubiylar, mamluklar davri O'rta asrlarning eng keng yoritilgan tarixiy davrlaridan sanaladi. Aynan shu davrda musulmon olamida tarixnavislik yangi bir bosqichga chiqdi. Jumladan, Mamluk Bibliography Online ma'lumotlarida mamluk davriga oid 6000 dan ortiq manba mavjud ekanligi ko'rsatiladi [7, - C.16.]. Biz o'rganayotgan Sayfiddin Qutuz tarixi ham aynan shu davrda sodir bo'lgani esa bizning asosiy tadqiqot manbalarimizni arab va fors, umuman musulmon tarixchilari asarlari tashkil qilishini anglatadi.

Sayfiddin Qutuzning hayoti, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'rganishda olimlar tomonidan manbalar bir qator toifalarga bo'ladilar. Jumladan, musulmon manbalari, mo'g'ul manbalari, sharq xristian manbalari, g'arb xristian manbalari va yangi davrdagi tadqiqot ishlariga ajratishadi [4, - S.1.].

Mamluklar davri, xususan, Sayfiddin Qutuz haqidagi eng noyob va ishonchli ma'lumotlar Abu Muhammad Taqiyuddin Ahmad Maqriziyning (1364-1442-yy.) "As-suluk li-ma'rifat duval al-mulk" nomli asarida qayd etilgan.

Ma'lumki, Maqriziy Misr tarixi, ayniqsa, mamluklar davri haqida juda qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan bo'lib, Ibn Xaldun maktabining yetakchi vakili sanaladi. Muallif tarixiy voqealarni o'zi ko'rgan voqealarni xolisona yetkazishga harakat qilgan va uning bu jihati mamluk davri tarixchilari orasida uni eng ishonchlisi bo'lishiga olib kelgan.

Ayyubiy va mamluklar davrida Damashqda yashagan Shihobiddin Maqdisiyning (1203-1267-yy) "Kitab al-ravdatayn fi akbar al-davlatayn al-Nuriyya val Salahiyya" ("Nuriylar hamda Solihiylar hukmronligi haqida ikki jannat kitobi") asari Zangiylar hamda Ayyubiylar sulolasining salibchilar bilan munosabatlari haqida bayon qiladi. Mavzumizga taalluqli eng muhim manbalardan yana biri Abul Fazl Muhiyiddin Abdulloh ibn Abduzzohir ibn Nashvan as-Sa'diyning Rukniddin Beybars davridagi voqealarni batafsil qayd etgan "Ar-ravz uz-Zohir fi Sirati Malik uz-Zohir" asari sanaladi. Muallifning Beybars davrida saroyda xizmat qilgani asar qimmatini yanada oshiradi.

Ayyubiy hukmdorlar va Mamluk saroyida kotib va diplomat vazifalarini bajargan mashhur tarixchi Abu Abdulloh Izzuddin Ibn Shaddadning "Tarih ul-Malik az-Zohir" nomli asarida Sulton Baybars va uning davri haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Asarda Sulton Sayfiddin Qutuz tomonidan Ayn Jalut jangiga tayyorgarlik, bu davrda amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar xususida ma'lumotlar taqdim etiladi. Yana bir mashhur qozi, diplomat hamda tarixchi Abu Abdulloh Jamoladdin Muhammad ibn Vosil (1208-1298) 1285-yilda yozilgan "Mufarrij al-qurub fi axbar bani Ayyub" ("Ayyubiylar tarixiga oid tashvishlarni tarqatuvchi") asarida Ayyubiy sulolasining Turkiya saljuqiylari, xorazmliklar, salibchilar va mo'g'ullar bilan aloqalari, mo'g'ullarning Suriyaga bosqini, Ayyubiylar oilasining bu davrdagi ahvoli va Ayn Jalut arafasidagi voqealar bayon etilgan. Asli kelib chiqishi Uzoq Sharqqa taqaladigan Beybars al-Mansuriyning "At-Tuhfa al-mulukiyya fi l-davla al turkiyya" asarida Bahriy mamluklar davri haqida hikoya qilinadi.

Damashqlik Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiyning "Islom tarixi" asari ham mavzumizga taalluqli eng muhim

manbalardan hisoblanadi. Asar VII asr boshlaridan 1301-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Unda Sayfiddin Qutuzning vafot etishi, Ayn Jalut janggi oldidan sodir bo'lgan ayrim voqealar bayon etiladi. Salibchilarning mo'g'ullar bilan aloqalari, Sayfiddin Qutuzning Akka salibchilari bilan uchrashuvi haqida Nasiriddin Muhammad ibn Furotning “Davlatlar va hukmdorlar tarixi” (“Tarixi duval val mulk”) asarida muhim ma'lumotlarni olish mumkin.

Sarimuddin Ibrohim Do'qmaqning “Nus'het ul enam fi tarixi Islam” (“Islom tarixiga sayohat”) nomli asarida mo'g'ullarning Suriya va Jazira yerlarini bosib olishi, bahriy mamluklari davlatining tashkil topishi, Xuloguning Qutuzga yo'llagan maktubi, Ayn Jalut jangi, Qutuzning o'ldirilishi, Xulogu hamda Oltin O'rda munosabatlari bilan bog'liq voqealar keltiriladi.

Maqriziyning shogirdi Ibn Tangriberdining (1411-1470-yy.) “an-Nujum al-zahira fi muluk Misr val-Qohira” (“Misr va Qohira shohlarining yorqin yulduzlari”) asari ham tadqiqot davrini o'rganishda eng muhim manbalardan biridir.



Yuqorida keltirgan manbalarimiz aynan Misr va mamluklar davriga taalluqli manbalar sanalsa, quyida keltiradigan manbalarimiz jahon tarixining umumiy voqealarini bayon qiluvchi, geografik jihatdan

kengroq bo'lgan hududlarni ifoda etadi. Albatta, bu o'rinda mazkur manbalarda bevosita yoki bilvosita mamluklar davriga, Sayfiddin Qutuz bilan bog'liq voqealarga ham murojatlar qilinadi.

Shu manbalardan dastlabkisi O'rta asrlarning eng taniqli tarixchilaridan biri, muhaddis olim Abul Hasan Izuddin Jazariy ibn Asir (1160-1233-yy.) dir. Uning “Al-komil fit-tarix” (“Mukammal tarix”) asarida mo'g'ullarning

Xorazmshohlar hamda musulmon dunyosini bosib olishiga guvoh bo'lgan kishilardan eshitganlarini qayd etgan edi.

Otasi va amakisi Ayn Jalut jangida bevosita ishtirok etgan Abul Fidoning “el-Muhtasar fî Ahbari'l-Besher” asarida Ayyubiylar davrining so'nggi va mamluklar davrining dastlabki yillari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Abul Fidoning mazkur asarida keltirilgan ma'lumotlardan keyingi tarixchilar tomonidan ko'p bora foydalanilgan.

Bobosi Ayyubiylarga, otasi esa Bahriy Mamluk saroyida xizmat qilgan, asli turk mamluki bo'lgan tarixchi Sayfiddin Abu Bakr Devadoriy o'zining “Kanz al-durar va-jomi' al-g'urar ” (“Marvaridlar xazinasini va yorqin buyumlar to'plami”) deb nomlangan asarida Huloguning mamluklarga yuborgan maktubi, Ayn Jalut jangi, Sultonning Sayfiddin Qutuzning harakatlari va vafoti bayon qilinadi.

Shuningdek, fiqhshunos olim, arab tili mutaxassisi va shoir Ibn al Vardiyning “Tarix ibn al-Vardiy”, Bahri Mamluk davrining buyuk tafsirshunos olimi, hadisshunos, shofe'iy faqih va tarixchisi Ibn Kasir (vaf. 774/1373) ning “Al Bidoya van Nihoya”, Ahmad al-Ayniyning (vaf. 855/1451) “Ikdu Juman fit Tarixi ahli zamon” singari asarlarda ham mamluklar va ayni paytda Sayfiddin Qutuz haqidagi bir qator ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, Temuriylar davrining mashhur tarixchisi Mirhondning “Ravzat us Safo”, nabirasi G'iyosiddin Xondamirning “Habib us-Siyar” singari asarlarida ham bizning tadqiqot davrimizga bilvosita taalluqli bo'lgan voqealar xususida bayon etiladi. Ayniqsa, Xondamirning “Habib us-Siyar”ida Ayn Jalut jangi haqida ham qisqa to'xtalib o'tiladi.

Mashhur fors tarixchisi Rashiduddin Fazlullohning Elxoniylar hukmdori G'azonxonning iltimosiga ko'ra yozgan “Jome at tavorix”, tarixchi, geograf va shoir Hamidulloh Qazviniyning “Tarixi Guzida” asarlarida ham mo'g'ullar istilosi, unga qarshi Xorazmshohlarning harakatlari, Huloguning Ismoiliiylar yurishi hamda mamluklarga qarshi urushi haqida ma'lumotlar qayd qilingan.

Shu bilan birga, arab va fors manbalaridan tashqari ushbu davr tarixini o'rganishda mo'g'ullar istilosi va Ayn Jalut jangi bo'lgan vaqtda yashab,

asarlarida guvoh bo'lganlari yoki guvohlardan eshitganlarini qayd etgan arman, suryoniy va yevropa tarixchilarining ham ma'lumotlaridan foydalanish mumkin. Jumladan, armanistonlik mashhur tarixchilar Ganjalik Kiragos ("Tarix") hamda Vardapet Vardan, asli ismi Vardan Areveltsi ("Dunyo tarixi")lar o'zlarining asarlarida Hulagu tomonidan Suriya, Mayafariqinning ishg'ol etilishi, Ayn Jalut janggi, bu urushdagi arman va gruzin askarlari haqida bayon etganlar.



Fotimiy va Ayyubiylarga xizmat qilgan Ibn ul Amidning "Axbor ul Ayyubiyyin" asarida, bir muddat Halab metropoliti sifatida faoliyat yuritgan suriyalik Mixail yoki Malatiyning "Tarix uz Zamon" nomli umumiy tarix asarlari (asar "Abul Faraj tarixi" deb ham ataladi) da ham tadqiqot mavzusiga oid ma'lumotlarni topish mumkin.


Yettinchi salib yurishi davomida Mansura jangida Fransiya qiroli Luidovik IX bilan birga qatnashgan lord Jan de Joinvil o'zining xotiralarida salib yurishi va Ayyubiylar qo'shini, Bahri Mamluklarning salibchilarga qarshi kurashdagi o'rniga to'xtalib o'tgan.

Umuman olganda o'rta asr manbalari, yuqorida ta'kidlaganimizdek, juda katta hajmni tashkil etadi.

Manbalar va tadqiqotlarning o'ziga xos jihatlari. Xulosa o'rnida.

Tadqiqot mavzumiz doirasida foydalanish mumkin bo'lgan manbalarni ko'rib chiqar ekanmiz, ularning mualliflari yashagan davr, yashagan mintaq va

siyosiy tuzum, mafkuraviy qarashlar ularning ma'lumotlariga turlicha ta'sir qilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, arab tarixchilari mamluklar va Sayfiddin Qutuz tarixiga islom prizmasidan qaraydi. Bu esa tarixiy voqelikda



shaxslarning kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeini emas, diniy-siyosiy faoliyati yoki e'tiqodiy xarakteriga urg'u berilishiga olib keladi. O'rta asr arab va fors mualliflarining deyarli barchasi ana shu tamoyil asosida tarix bitganlar. Bilamizki, XIV-XV asr islom tarixshunosligining markazi Misr va Shom bo'lgan edi. Mamluk sultonlari tarixchilarni qo'lladilar va ularga muhim vazifalar topshirdilar. Bu

davrda kotiblar, diniy olimlar orasida tarixchilar shakllana boshladi [6, - P.49.].

Ammo, arab va umuman islom dunyosidan tashqaridagi manbalar va adabiyotlar haqida bunday deya olmaymiz. Masalan, biz o'rganayotgan davrda asar yozgan arman mualliflarining deyarli barchasi ruhoniylar bo'lib, ular o'z asarlarida nasroniylik va arman davlatchiligi g'ayrati ostida o'z e'tiqodlari va millatlarini ulug'lashga harakat qilganlar. Ular o'z asarlarida islom va musulmonlarni qoralab, hatto mo'g'ullarni musulmonlarga qarshi kurashgan, nasroniylikning qutqaruvchilari, deb bilganlar [4, - S.42.].

Yevropa manbalari esa musulmon dunyosini qarama-qarshi din, mintaq, siyosat ko'zi bilan o'rganadilar. Turkiyalik tarixchi Muhammad Said Guler "nasroniy (xristian) mualliflarning asarlari, asosan sayohatnomalar va xotiralar

(xatirat) shaklida yozilgan bo‘lib, mo‘g‘ullar va ularning islom mamlakatlariga bostirib kirishlari haqidagi ma’lumotlar juda kam va ko‘pincha xatolarga to‘la’ ekanligi haqida aytadi [4, - S.42].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mamluklar davlati va Sayfiddin Qutuz tarixi bayon etilgan barcha manbalarni tahliliy tadqiq etish natijasida turli diniy tafakkur, siyosiy iroda egalari tomonidan bildirilgan fikrlarni kuzatish, ulardan esa tegishli, obyektiv xulosalar chiqarish imkoniyati vujudga keladi. Ammo tadqiqotchidan, o‘rta asr arab, fors, xristian, arman manbalaridagi diniy-fanatik, siyosiy qarashlarni tom ma’nodagi haqiqat deb qabul qilmaslik talab etiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Carl F. Petry. The mamluk Sultanate a History. Northwestern University, Illinois. - Cambridge University Press, 2022. – P 358.
2. John Masson Smith Jr., “Ayn Jālūt: Mamlūk Success or Mongol Failure”, Harvard Journal of Asiatic Studies, Vol. 44/2, (December 1984), - 307-345 p.
3. Marc Mercier. A mamluk history bibliography. – 1999. – P 264.
4. Muhammed Said Güler. Moğol istîlâsi ve Aynicâlût savaşı. Yüksek lisans tezi. –Istanbul, 2018.- S. 394.
5. Reuven Amitai-Preiss, mongols and mamluks (Mamluk-İlkhānid War 1260-1281), Cambridge University Press, Cambridge 1996. – P 272.
6. Saidakbarov X.S. Central Asian journal of academic research. Volume 2, Issue 6, Part 2 June 2024. – 46-50 p.
7. Становление государства мамлюков в Египте во второй половине XIII века / А. Филиппов. – Минск : ИВЦ Минфина, 2021. – С 352.
8. https://www.academia.edu/34772375/An_mamluk_history_bibliography_pdf
9. <https://www.youtube.com/watch?v=aBBINtUHrEk>

TARIX

ALISHER NAVOIY SIYMOSI SHARQ MINIATYURALARIDA



**Firdavs
ABDUXOLIQOV,**
O'zbekiston madaniy
merosni saqlash,
o'rganish va
ommalashtirish
bo'yicha Butunjahon
jamiyati boshqaruvi
raisi, san'atshunoslik
bo'yicha falsafa
doktori.

UO'K 95.15

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning o'rta asr miniatyuralaridagi tasviri, shuningdek, miniatyura san'atining rivoji, uning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilinadi. Muallif ushbu miniatyuralarning Alisher Navoiy qiyofasini belgilashdagi o'rni, ularning qanchalik haqiqatga mos kelishi, shoir portretini ishlagan musavvirlarning uslubi, yondashuvi haqida o'z qarashlarini bayon etgan.

Аннотация: В статье рассматривается образ великого поэта и мыслителя Алишера Навои в средневековой миниатюре, развитие искусства миниатюры и его особенности. Автор высказывает свои соображения о роли этих миниатюр в формировании образа Алишера Навои, степени их реалистичности, стиле и подходе художников, работавших над портретом поэта.

Annotation: This article describes the image of the great poet and thinker Alisher Navoi in medieval miniatures, the development of miniature art, and its specific features. The author expressed his views on the role of these miniatures in determining the image of Alisher Navoi, how realistic they are, the style and approach of the painters who worked on the portrait of the poet.

Kalit so'zlar: Navoiy, miniatyura, temuriylar, Behzod, tasviriy san'at, Hirot, "Xamsa".

Ключевые слова: Навои, миниатюры, тимуриды, Бехзад, искусство, Герат, Хамса.

Key words: Navoi, miniatures. Timurids, Behzad, art, Herat, Khamsa.

Ma'lumki, o'rta asr Sharq miniatyuralari Vatanimiz tarixini o'rganish, voqea-hodisalar, tarixiy shaxslarning tashqi ko'rinishi haqida muayyan tasavvur hosil qilishda katta o'rin tutadi.

Miniatyura san'atining alohida yo'nalishi sifatida portret janri Hirotida, XV asrning so'nggi choragiga kelganda, temuriy Sulton Husayn (1438-1507) hukmronligi davrida, uning vaziri, mashhur shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning sa'y-harakatlari yordamida shakllangan. Ularning ikkalasi ham san'atga homiylik qilishgan bo'lib, tasavvuf ta'limoti va Kamoliddin Behzod (1455-1536) ta'siri ostida bo'lishgan [Gorelik, 1969: 111-121].

Behzod kompozitsiyaning tekis yechimini saqlab qolgan holda an'anaviy tamoyillar doirasida portretlar yaratgan, portretda tasvirlanayotgan shaxsning

individual xususiyatlarini aks ettirish orqali unga jonli tus bergan va shu tufayli chehralarni tanib olish (U chizgan Shayboniyxon, Sulton Husayn, Navoiy, Jomiy portretlari misolida) samarasiga erishgan. Shu bilan birga, u nafaqat miniatyuraning badiiy tilini saqlab qolgan, balki tasvirlangan insonga o'zining shaxsiy munosabatini ham bildirgan [Semenov, 1941: S.37].

Zayniddin Vosifiy shunday yozadi: “Har doim shoh qayg‘u va g‘am-tashvishlar sabab tushkunlikka tushganda, Behzod qandaydir suratlar yaratar, unga bir qaragan shohning qalb ko‘zgusi g‘uboru changlardan tozalanib, uning shohona tafakkur zarvaraqlarini qayg‘u alomatlari tark etar edi” [Vosifiy, 2017: 258].

Vosifiyning ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, portretlar xotiradagi obrazlardan chizilgan bo‘lib, aftidan, u ular qahramonlarning odatlari va hatti-harakatlarini qayta-qayta kuzatishlar va xomaki chizgilar asosida yaratilgan. Ehtimol, aynan shu grafik chizgilar kelajakda obrazli portret san’atining poydevorini yaratgan bo‘lishi mumkin.

Bir paytlar shoirning majlisiga Behzod olib kelgan Alisher Navoiy surati haqidagi Vosifiyning hikoyasi barchaga ma’lum. Bu bo‘lgan voqea edi: “...chappar urib gullagan bog‘dagi daraxtlarning shoxlarida turli xildagi chiroyli qushlar qo‘nib turibdi. Har joyda ariqlarda suvlar oqmoqda, go‘zalligi bilan qalbni quvontiradigan gullar ochilgan. Mir Alisherning o‘zi hassaga suyanib turibdi, qarshisida esa sadaqa va hadyalar uchun mo‘ljallangan oltin va kumush bilan to‘ldirilgan tovoq turibdi. Hazrati Mir bu ijod mahsulini ko‘rgach, qalbi shodlikka to‘lib, “Ofarin!” deb hayqirdi” [Vosifiy, 2017: 258].

U o‘z yonida hozir bo‘lganlardan ushbu asarni baholashlarini so‘radi. Vosifiy suratni maqtashda jonbozlik ko‘rsatgan saroy a‘yonlarini tasvirlaydi. Anjuman ishtirokchilarining har biri rassom ijodining hayot bilan hamnafas ekanini alohida ta’kidlashdi. Portretda aynan Alisher Navoiy tasvirlanganiga hozir bo‘lganlarning hech biri shubha qilmaydi. Bu holat o‘sha uzoq zamonlarda ham zohiriy o‘xshashlik nihoyatda qadrlanganidan dalolat beradi.

Behzod Alisher Navoiy obraziga ham bir necha bor murojaat qilgan. Vosifiyning hikoyalaridan ma’lumki, Behzod shoirning bog‘da qo‘lida hassa bilan tasvirlangan portret-suratini chizgan. Biz XVI asrda yashab ijod qilgan buxorolik rassom Mahmud Muzahhibning portretida ham uni shunday holatda ko‘ramiz.

Shu o‘rinda aytish joizki, Mahmud Muzahhibga tegishli bu miniatyura ilk bor professor A. A. Semyonov tomonidan shoirning 500 yillik yubileyi oldidan 1940-yili chop ettirilgan edi. Keyinchalik, V. Kaydalov, A. Abdullaev, L. Abdullaev, Ch. Ahmarov singari musavvirlar, haykaltaroshlar o‘z asarlarini ana shu rasm asosida ishlaganlar.

Bu rasm 1500-yili Behzodning shogirdi Mahmud Muzahhib tomonidan yaratilgan bo‘lib, Eronning Mashhad shahridagi Ostona kutubxonasida saqlanmoqda. Bu rasmda Navoiy hassaga suyangon, ancha keksa holatda tasvirlangan. Rasmning yuqorigi chap burchagida “Suvrati Amiri Kabir Mir

Alisher”, pastki o’ng burchagida esa “Amali Mahmud Muzahhib” so’zlari yozilgan.

Aftidan, bu surat shoir ikonografiyasining asosini tashkil qilgan, chunki qo’lida hasa tutgan keksa shoirning xuddi shunday obrazi Behzodning quyidagi ko’plab miniatyuralarida uchraydi: “Masjid qurilishi” (Yazdiyning “Zafar-noma”si. 1467-yil. Baltimor) miniatyurasida u Amir Temur qiyofasida qurilishni kuzatayotgani tasvirlangan; Navoiyning shunga o’xshash siymosini Xusravning otasi Shoh Hurmuzd qiyofasidagi Sulton Husayn oqsoqollarning maslahati bilan o’g’lini kechirgani tasvirlangan.

Yana bir tarixiy surat Turkiyaning Istanbul shahridagi To’pqopi saroyida saqlanadi. Rasm 2155 saqlov raqami ostidagi muraqqa’ning 29 b varag’idan olingan. Miniatyuraning uslubiga qarab uni Tabrizda, taxminan 1525-1530-yillarda Qosim Ali ismli rassom tomonidan ishlangan, deb taxmin qilinadi.

Rasmda bir yosh yigit bilan 30-35 yoshlik kishi tasvirlangan. Suratning yuqori tomonidagi chap burchagida mayda arab yozuvida “Suvrati dilpazir Mirzochuchuk bo Amir be shibhu nazir Nizomiddin Alisher”, pastki qismida, o’ng tomonda esa mayda yozuvda “Amali al-faqir Ali” so’zlari bor. Demak, rasmda Navoiy tasvirlangani haqida hech qanday shubha tug’ilmaydi.

Chuchuk Mirzo Navoiyning jiyani bo’lib, shoirning katta e’tibori va nazarida bo’lgan. Uning asl ismi Sulton Muhammad Mirzo edi. Bu miniatyurada Navoiy boshqa portretlaridagi kabi hassaga suyangan holatda – dastlab Behzod qo’llagan ikonografik pozada tasvirlangan.

Chuchuk Mirzo Navoiyga gul sovg’a qilayotgan yigit sifatida tasvirlangan. Uning tashqi ko’rinishi va sallasiga o’ziga xos ukpar (egret) taqilgan liboslari Tabrizdagi Safaviylar portretida tasvirlangan noziktabiat yigitlarnikiga o’xshaydi. Portretning pastki o’ng tomonida - Al faqir - Ali degan yozuvi bor va ehtimol bu atributi bo’lishi mumkin.

Navoiy rasmda kulcha yuzli, qirri burun, kalta qilib olingan qizg’ish soqolmo’ylab, qoboqlari keng etib tasvirlangan. Shoirning libosi ham o’ziga xos - oq ko’ylak ustidan yoqasiz moviy kamzul, ustidan uzun yenglik, pushti astarlik jigarrang chakmon, oyog’ida oq chuvak, boshida esa yashil do’ppiga oq salla o’ralgan. Uni Nizomiyning “Xamsa” qo’lyozmasidagi “Xusravning tavbasi” miniatyurasida ham, shuningdek, Behzod qalamiga mansubligi aytilgan “So’fiylar raqsi” miniatyurasida ham ko’ramiz.

“Xusravning tavbasi” miniatyurasida Navoiy jigarrang chopon kiyib, boshiga kichik oq salla o’ragan. U so’fiylarning shayxlariga xos tarzda hassaga suyangan holda turibdi. “So’fiylar raqsi” miniatyurasida ham A. Navoiy ko’k libosda, hassaga suyangan holda tasvirlangan. Shoirning bu ikonografiyasidan keyingi avlod rassomlari Mahmud Muzahhib va Qosim Alilar ham foydalanishgan (To’pqopi saroyi, N 2155, sahifa. 29b.).

Navoiy siymosi aks etgan yana bir surat AQShning Nyu-York shahridagi Metropolitan muzeyida saqlanmoqda. 1490-yillarda chizilgani taxmin qilingan ushbu miniatyura “Darveshlar raqsi” deb nomlanib, u ham Kamoliddin Behzodga nisbat beriladi.

Behzod va uning shogirdlari ulardan oldin oʻtgan davrlardagi koʻzga koʻringan diniy arboblari va shoirlarning xayoliy siymolarini jonli, real qiyofalarda aks ettiruvchi “guruh portreti”ga ham asos solishgan. Behzodning bu miniatyurasidagi shod-xurram oʻynayotgan soʻfiylar obrazlari orasida real odamlar ham (Jomiy, Navoiy va Behzodning oʻzi) tasvirlangan.

Behzodning shogirdi Qosim Alining “Bogʻdagi mutasavviflar” nomi bilan mashhur boʻlgan miniatyurasida Hamid Sulaymon fors shoirlarining (Nizomiy, Saʼdiy, Jomiy va boshqalarning) xayoliy portretlarini tasvirlagan [Suleyman, 1980: 34].

Bu syujetga H.Sulaymon tomonidan aniqlik kiritilgan. Uning taxminiga koʻra, bu yerda Sharqning buyuk shoirlari: Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Dehlaviy, Saʼdiy, Abdurahmon Jomiy, Mir Alisher Navoiy va boshqa shoirlarning majlisi tasvirlangan. Agar ushbu taxmin toʻgʻri boʻlsa, miniatyurada fors tilida ijod qilgan shoirlarning tasavvuriy guruh portreti namoyish qilingan.

H.Sulaymonov uni “Navoiy buyuk shoirlar oʻrtasida” deb nomlagan. Chunki, rasm dostonning soʻnggi epizodlaridan biri, yaʼni Navoiy tugallangan “Xamsa”ni ustoz Jomiy huzuriga olib kelgani, ustoz asarni varaqlar ekan, shoir oʻz salaflarini xayolan bogʻda koʻrgani tasvirlanadi:

***Koʻrub oʻzni bir toza boʻston aro.
Qilib gasht bogʻu guliston aro.***

***Chu Saʼdiyu, Firdavsiyu, Unsuriy,
Sanoiyu, Xoqoniyu, Anvari.***

***Anga tegurkim shayxu payrav edi
Ki, yaʼni Nizomiyu Xusrav edi.***

Rasmda anʼanaviy yarim doirada Nizomiy, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Shayx Saʼdiy, Sanoiy, Anvari va Hoqoniylar, Nizomiyni yonida Jomiy va Navoiy alohida oʻtirishibdi, Hasan Dehlaviy esa tik turibdi. Osmonda 3-4 kunlik oy, yulduzlar, adirlik, gullab turgan meva daraxtlari, yuqoridan suv oqib kelib, oʻtirganlar yonidan, Anvari va Xoqoniylar oldidan oʻtadi [Suleyman, 1980: 34].

Yuqoridagi oʻng burchakda doston oxiridan uch bayt berilgan. Pastki bayt jadvali ichida “amali Qosim Ali” soʻzlari qizil siyohda yozilgan.

“Saddi Iskandariy”dagi rasmda shoir oʻz asarini buyuk ustozlar muhokamasiga olib kelgan va ularga hurmat yuzasidan boshini quyi solib,

ehtirom bilan o'ltiribdi, Nizomiy bilan Jomiy esa qo'llarini harakatga keltirib so'zlashmoqdalar. Bu suratda Navoiy uzun yenglik yashil chakmonda tasvirlangan. Rasmdagi Navoiyning qiyofasi Mahmud Muzahhib ishlagan mashhur tasvirga ancha o'xshaydi. Miniaturani Behzod shogirdlarining biri, demak shoirning o'zi voyaga yetkazgan musavvir ishlagan.



Dehlidagi milliy muzey zallarining birida “Navoiy va Jomiy. Behzod ishi” deb atalgan rasm topilgan. Rasm markazida oq soqolli ikki nuroniy shaxs suhbatlashib o'ltirgani tasvirlangan. Ular yuz tuzilishi, kiyim-kechagi, o'tirish usuli bilan XV asrda Hirotda yashagan ikki buyuk shaxs — Jomiy va Navoiyga o'xshaydi. Har ikkala qiyofa yuqorida aytilgan “Saddi Iskandariy” oxirida berilgan “Navoiy buyuk shoirlar o'rtasida” deb nomlangan rasmdagi ikki mutafakkir qiyofalarini eslatadi.

Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta II ning Vindzor qasri kutubxonasida Navoiy asarlarining Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan ikki qo'lyozmasi saqlanadi. Bu haqda ilk bor 1968-yili professor Hamid Sulaymon aniqlagan. Bu asarlarning biri terma devon, ikkinchisi “Xamsa” bo'lib, har ikkalasida ham badiiy bezakli va mo'jaz rasmlar o'rin olgan. Devonni 1872-yili Buxoro amiri Muzaffarxon (1860-1885) Hindistondagi ingliz gubernatori orqali qirolicha Viktoriyaga (1838-1901) tortiq sifatida yuborgan.

“Xamsa” qo'lyozmasi Hindistonda Boburiylar kutubxonasining mulki bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. 1a varaqda “Sohibqiron Shahobiddin Muhammad Shohijahon podshohi G'oziy, 1038” deb yozilgan, o'sha varaqdagi muhrda “Olamgir podshoh” (ya'ni Avrangzeb) so'zlari bor. Bu qo'lyozma Hindistondan inglizlar istilosi paytida Britaniyaga kelib qolgan bo'lishi mumkin.

Mazkur “Xamsa”ning “Hayrat ul-abror” dostoniga to'rt rasm ishlangan bo'lib, 7a varaqdagi suratda Sulton Husayn huzuridagi bazm - saroy ahllari, chet ellik mehmonlar, ovchilar, sozandalar, ziyofatga hozirlik ko'rayotgan g'ulomlar tasvirlangan. Adir etagidagi maysazorda shohona chodir tikilgan, uning tagida so'ri, uning ustida oddiygina taxtda qo'lida kosa ushlagan Sulton Husayn o'tirganini ko'rishimiz mumkin. Uning oldida qo'lida ochiq kitob ushlagan, qaddi bukilgan, oppoq soqolli mo'ysafid ta'zim bilan Sultonga nimadir demoqda. O'ng

tomonda oq soqolli, jigarrang kamzul ustidan moviy chakmon kiygan kekxa va yashil toʻnli odamlar joy olishgan.

Rasmning yuqorisida 5 bayt matn bor, unda:

*Xon kelibon ham ato, ham ot anga,
Faqr oti birla mubohot anga.*

*Turki moʻgʻul qullari xonlar aning,
Mulk dihi, mulksitonlar aning.*

*Qullugʻi xonlarga kelib farzi ayn,
Xonlaru shahlar shahi Sulton Husayn,-*

misralarini oʻqish mumkin.

Fozila Sulaymonova oʻz maqolasida suratdagi kekxa shoir mavlono Lutfiy, soʻrining oʻng tomonida oʻltirgan ikki kishi esa, Jomiy va Navoiy boʻlishi kerak, degan fikrni bildirgan. Ammo, Lutfiy Husayn Boyqaro taxt tepasiga kelishidan toʻrt yil ilgari, 1465-yilda vafot etganini nazarda tutsak, bu davrada Lutfiyning tasviri tarixiy voqelikka zid boʻlar edi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Navoiyning “Navodir un-nihoya” devonining XV asrning 80-yillarida Sulton Husayn Boyqaro uchun tayyorlangan qoʻlyozmasi saqlanadi. Devonni Sulton Ali Mashhadiy koʻchirgan, ammo unga rasm ishlagan musavvirlar nomi koʻrsatilmagan. Kitob badiiy bezakli, 6 ta moʻjaz rasm ham bor, ammo ular yaxshi saqlanmagan, koʻp joylarga boʻyoq toʻkilgan. 29a va 97a varaqlarda yosh, dumaloq yuzli bir yigit tasvirlangan. Fozila Sulaymonova bunda Navoiyning yigitlik chogʻi tavsirlangan, degan fikrni ilgari surgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Восифий З. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Душанбе: Адиб, 2017. - Б. 258.
2. Горелик М. В. Портреты Бехзада / К вопросу о творческом методе // Искусство и археология Ирана. Доклады. Всесоюзная конференция (1969), с. 111–121.
3. Миниатюры к произведениям Алишера Навои XV–XIX вв. Авт. предисл. и сост. Х. Сулейман, Ф. Сулейманова. Ташкент, 1980.
4. Семенов А. А. Портреты эпохи Навои. – Ташкент, 1941.- С.37.
5. Сулаймонова Ф. Навоийнинг мўъжаз сурати // «Гулистон» журнали, 1990 йил, 2-сон. (“Алишер Навоий ва XXI Аср” VIII халқаро конференция материаллари. – Тошкент-Боку, 2023. – Б. 129-133.)

TARIX**XORAZM JADID MAKTABLARIDA TATAR
PEDAGOGLARINING ISHTIROKI VA FAOLLIGI****UO‘K 94(575.171)“1900/1924”**

**Sayyora
SAMANDAROVA,**
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm jadid maktablarining tashkil etilishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutgan tatar pedagoglari faoliyati tahlil etiladi. “Tarjimon” gazetasi va ilmiy adabiyotlardagi tarixiy faktlar asosida mavzu mohiyati yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется деятельность татарских педагогов, сыгравших важную роль в организации и развитии джадидских школ Хорезма. Суть темы исследуется на основе исторических фактов из газеты “Тарджимон” и научной литературы.

Annotation: This article analyzes the activities of Tatar pedagogues who played an important role in the organization and development of Khorezm Jadid schools. The essence of the topic is studied based on historical facts from the newspaper “Tarjimon” and scientific literature.

Kalit so‘zlar: Maktab, madrasa, jadid, Qrim, Qozon, Xiva, Yangi Urganch, darslik, gazeta, tarix, jarayon, pedagogika.

Ключевые слова: Школа, медресе, джадид, Крым, Казань, Хива, Новый Ургенч, учебник, газета, история, процесс, педагогика.

Key words: School, madrasa, Jadid, Crimea, Kazan, Khiva, New Urgench, textbook, newspaper, history, process, pedagogy.

Turkiy musulmon xalqlarning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi lideri - Qrim tatari Ismoil Gasprali tomonidan asos solingan va “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori bilan chinakam ma’nodagi fenomen bo‘lgan harakat tarixning boqiy, yorqin sahifalari bo‘libgina qolmay, undagi g‘oya va maqsadlar har bir davr taraqqiyparvarlari uchun o‘mak bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Jadidchilik harakati faoliyatiga nazar solsak, uning turkiy musulmon xalqlar tarixidagi noyob hodisa ekanligiga amin bo‘lamiz. Negaki, strategik istiqbolli g‘oya, amaliy faoliyat bobida bu qadar dadil, shiddatli faoliyat tarixda kamdan-kam yetishib chiqqan va o‘zining amaliy natijasini bergan.

Jadidlar tarix uchun g'oyatda qisqa bo'lgan muddatda - atigi yigirma-o'ttiz yillik davr ichida xalqning ijtimoiy ongini, jamiyatdagi hayotni keskin o'zgartirib, turkiy millatlarning jipsligi uchun xizmat qildilar. Ya'ni, chin ma'nodagi uyg'onish aynan jadidlar timsolida yuz berdi. Shu bois ham jadidlarning tabiiy ehtiyoj tufayli tarix sahnasiga chiqishi, favqulodda hodisa - fenomen hisoblanadi. Ana shunday harakat, tabiiyki, Xorazmni ham qamrab olgan hamda voha xalqlari ichidan yetuk namoyandalar yetishib chiqqan.

Jadidchilik harakati aynan maktablardan boshlangan bo'lib, Xorazmda jadid maktablari Xiva xoni Feruzxon (1844-1910), valiahd va keyinchalik 1910-18-yillarda hukmdorlik qilgan Asfandiyor (1872-1910) hamda bosh vazir Islomxo'ja (1872-1910) larning tashabbuslari va mablag'lari asosida tashkil etilgan.

Ismoil Gaspralining Qrimda nashr etilgan "Tarjimon" gazetasining 1887-yil 15-avgust sonidagi xabariga ko'ra, "Xivada xon tarafidan maktab ochilib, unda bolalar rus tili o'rganadilar; maktab xon sarmoyasi bilan ta'minlanadi; maktab uchun 34 xonali bino qurilgan. Ikki yil oldin Xiva xoni Feruzxon dunyoviy ilmlar ham o'qitiladigan yangi madrasa ochmoqchi edi, bu shu ishning boshlanishi bo'lsa kerak" (1).

Professor Zaynobiddin Abdirashidovning tadqiqotiga ko'ra, "1898-yili Xivada orenburglik Muhammad Vafo va mullo Abdurahmon afandilar tomonidan usuli savtiya (jadid) maktabi ochildi. Lekin bir oy davom etgan faoliyatidan keyin maktab faoliyati Xivadan Urganch shahriga ko'chiriladi".

1907-yil 30-martda "Tarjimon" gazetasi Asfandiyorning "Xiva valiahdi usuli savtiya maktabi ochdirish uchun Barudiy madrasasini tamomlagan ikki muallimni chaqirtirdi, 25-fevralda keldilar, kelishlari bilan maktabda dars boshlaganlari haqida" gi xabarini ham chop qilgan. Shuningdek, 1905-yilda xon amaldori Mamat mahram tomonidan ham Deshonqal'adagi uyida jadid maktabi faoliyatini boshlagan.

Shu tarzda Xorazmda 1898-yilda dastlab tashkil etilgan usuli savtiya ta'lim maskanlari "Maktabi Mahramiya" (Mamat Mahramning mablag'iga barpo etilgan maktab), "Maktabi jadid" (Islomxo'janing mablag'iga barpo etilgan) deya nomlangan.

Ushbu maktablarda pedagog sifatida qozonlik, orenburglik tatar ma'rifatparvarlari faoliyat ko'rsatishgan. 1907-yilning 28-mayida valiahd

Asfandiyor va bosh vazir Islomxo‘ja, 31-may kuni esa qozikalon Salimoxun boshchiligidagi mudarris, oxunlar tomonidan har ikkala maktabning 113 nafar talabasi imtihon topshirib, a‘lo baho olishgan. Imtihondan so‘ng Asfandiyor, Islomxo‘ja va qozikalon Salimoxunlar o‘zaro maslahatlashib, Qozon shahridan ushbu maktablar uchun yana ikkita o‘qituvchi taklif qilishga qaror qilishadi. Shuningdek, Xorazmda jadid maktablarini ko‘paytirish, o‘quv jihozlari, adabiyotlari bilan ta‘minlash, ulardagi ta‘lim sifatini nazorat qilish uchun tatar pedagogi Ramazon Muhammad Karimzoda maktablar noziri qilib tayinlangan.

Ismoil Gasprali Qrimdan boshlangan jadid maktablarining Xorazmda tashkil etilishini “Tarjimon” gazetasida doimo yoritib borgan. 1908-yilning 18-yanvarida “Tarjimon” gazetasida uning “Xivada usuli jadida maktablari” nomli maqolasi chop etilgan va undagi ma‘lumotga ko‘ra, “1898-yil dekabrda Orenburgdan Muhammad Rifo Karvonboshi bilan muallim Abdurahmon afandi Xivaga keldi va bir oy turdi, taassub kuchliligidan Urganchga ketdi va usuli savtiya maktabi ochib, 1 yil bola o‘qitdi, vafot etdi. Keyinroq xon amaldori Muhammad Mahram ochgan maktab xalq tarafidan yaxshi qabul qilindi va xalq 1907-yili valiahdga murojaat qildi. Natijada Muhammad Rifo Karvonboshi vositasida Qozondan ikki nafar pedagog taklif qilindi. Tatar o‘qituvchilari Xivadagi “Maktabi mahramiy” va “Maktabi jadid”ga muallim qilib tayinlandi. Bu maktablarga nozir tayinlandi, may oyida imtihonlar bo‘ldi, valiahd bularni ko‘rib, Qozondan bir muallim chaqirib, yana 1 maktab ochdi. Kelayotgan may oyida rushdiya maktabi ochiladi, uning sohibi vazirlardan Islomxo‘ja, muallimi Ahmad Nuriddin” (2).

Ismoil Gasprali, shuningdek, 1908-yilning 4-aprelida “Tarjimon” gazetasidagi maqolasida “O‘tgan yil Xiva xoni Qozondan ikki muallim chaqirib 2 usuli jadid maktablari ochgan, muallimlar Yusuf va Husayn afandi, 4-5 oy o‘tgach imtihonlar bo‘ldi. Yangi o‘quv yilidan Qozondan 3 muallim chaqirildi, ular ishga jiddiy kirishdilar”, degan xabarni beradi.

Shu tarzda Ismoil Gasprali Xorazmda jadid pedagoglari ko‘payayotgani, ularni bevosita hukmdor Feruzxon, valiahd Asfandiyor va bosh vazir Islomxo‘ja singari taraqqiyparvarlar qo‘llab-quvvatlayotganini e‘tirof etgan holda, “Tarjimon” gazetasining 1909-yilgi 40-sonida “maktablarning ochilishi, ko‘payishi lozim. Boqchasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaga endi to‘g‘ri kelmaydi, yarashmaydi. Endi Xivaning o‘zidan muallimlar yetishtirmoq kerak va Xivada chop etiladigan alifbolarni yaratmoq kerak. Bunda ham hech bir kimsa zarar ko‘rmaydi” deya muhim vazifani qo‘yadi.



“Ana shu ma’lumotlardan ma’lum bo’ladiki, Xorazmda jadid maktablarini ochish 1898-yildan boshlangan va XX asr boshlariga kelib nafaqat Xiva va Yangi Urganch, balki Gurlan, Qo’ng’irot, Xo’jayli, Toshhovuz shaharlarida ham yangi usuldagi jadid maktablari tashkil qilingan va uning

bitiruvchilari orasidan Xorazmdagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan Bekjon Rahmon, Nizomiddinoxun, Inoyatxon, Jumaniyoz Ollaquliyev, Ibrohim Ollaquliyev, Qurbon Beregin, Karim Boltayev, Maryam Sultonmurodova singari ko‘plab namoyondalar yetishib chiqdi” (3).

Qozon shahridan taklif qilinib, Xorazmdagi jadid pedagoglari qatorida hozirda ham nomlari mashhur o‘qituvchilar sifatida e’zozlanadigan quyidagi shaxslarga to‘xtalib o‘tsak.

“ABDULLA SALIM -Xorazmdagi jadid maktablarida faoliyat ko‘rsatgan pedagog.1911-yilda bosh vazir Islomxo‘janing taklifi bilan Qozon shahridan Xorazmga kelgan. Xivadagi jadid maktabi va 1920-yildan keyingi Xorazm respublikasi, 1925-yildan so‘nggi Xorazm okrugi davridagi sovet maktablarida faoliyat ko‘rsatgan.

AGISHEVA MARYAM-Xorazmdagi jadid maktabi va respublika, okrug davridagi sovet maktablarida faoliyat olib borgan pedagog. Bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan 1907-yilda Qozon shahridan taklif qilingan. Xiva shahridagi qizlar maktabida, so‘ngra Yangi Urganch shahridagi jadid maktabida o‘qituvchilik qilgan. Maryam Agisheva, Zaynab Siddiqova singari Xorazmga Qozon shahridan kelib, ta’lim taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan pedagoglarning hayoti va faoliyati afsuski, tadqiq qilinmagan.

AHMAD NURIDDIN-Xivadagi jadid maktabida faoliyat ko‘rsatgan tatar pedagogi. Bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan tashkil etilgan Xivadagi jadid maktabida o‘qituvchilik qilgan. Ushbu ta’lim maskani “Maktabi Rushdiya”(o‘rta maktab) deya nomlangan.1907-yil 28-may kuni valiahd Asfandiyor va bosh vazir Islomxo‘ja, 31-may kuni Qozikalon Salimoxun va boshqa oxun, mudarrislar maktab o‘quvchilarini imtihondan o‘tkazishadi. Natijada Ahmad Nuriddinning xorazmlik o‘quvchilarga berayotgan ta’limi yuqori baholanadi. Ahmad Nuriddinning hayoti va Xorazmdagi pedagogika taraqqiyotiga qo‘shgan faoliyati, afsuski, hali tadqiq qilinmagan.

BAKIROV DAVID-XX asr boshlarida Xorazmdagi jadid va 1920-yildan keyingi sovet maktablarida faoliyat olib borgan pedagog. Bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan Qozon shahridan Xivaga taklif qilingan. Nurillaboy saroyi qarshisidagi Sobir mahramning jadid maktabida o‘qituvchilik qilgan. 1920-yilda xonlik tugatilgach, respublika va 1925-yildan so‘nggi Xorazm okrug davrida sovet maktablarida ham faoliyatini davom ettirgan. David Bakirovning hayoti va Xorazm pedagogikasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ham hali o‘rganilmagan.

BAKIROV MUXTOR- XX asr boshlarida Xorazmdagi jadid va keyinchalik sovet maktablarida faoliyat olib borgan pedagog. Qozon shahridan bosh vazir Islomxo‘ja taklifi bilan Xivaga kelgan. David va Muxtor Bakirovlar aka-uka bo‘lib, Xorazm ta‘lim taraqqiyoti uchun katta hissa qo‘shishgan.

AHMEDOV YUSUF - 1907-yilda Xiva xoni Feruzxon tomonidan Qozon shahridan Husayin Ibragimov bilan birga taklif qilingan va Xivadagi jadid maktabida o‘qituvchilik qilgan. Yusuf Ahmedov ishlagan maktab tezda o‘quvchilar, ota-onalar e‘tiborini tortib, ta‘lim sifati bo‘yicha Xorazmdagi rus-tuzem, jadid va an‘anaviy eski maktablar o‘rtasidagi raqobatda oldingi darajaga chiqqan. Yusuf Ahmedovning hayoti va Xorazmdagi ta‘lim taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tarix fanida tadqiq qilinmagan” (4).

Shu singari, jadid maktablaridagi tatar millatiga mansub o‘qituvchilar Xorazmda ko‘pchilikni tashkil qilgan. Afsuski, ularning Xorazmda ta‘lim taraqqiyotiga qo‘shgan katta hissasi to‘laqonli, fundamental tahlil etilmagan. Shu bois, Qozon, Orenburg shaharlaridagi arxivlar, kutubxonalarga ilmiy ekspeditsiya uyushtirib, tatar ma‘rifatparvarlarining ta‘lim sohasidagi faoliyatini tadqiq qilish lozim. Shuningdek, tataristonlik olimlar bilan hamkorlikda “Xorazmdagi jadid maktablari va ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlarda tatar ma‘rifatparvarlarining faolligi” mavzusida kitob yaratish oldimizda turgan vazifalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Tarjimon” gazetasi. 1887-yil, 15-avgust.
2. “Tarjimon” gazetasi. 1908-yil, 18-yanvar.
3. S.Samandar, U.Bekmuhammad. “Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta‘lim va adabiyot”, “Milleniumus print” nashriyoti, Urganch. 2024-yil, 67-bet.
4. U.Bekmuhammad. “Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi”, “Milleniumus print” nashriyoti, Urganch. 2024-yil, 23, 35, 67-betlar.

TARIX

XORAZM VILOYATI DAVRIY MATBUOTI FAOLIYATI VA TARG‘IBOT YO‘NALISHLARI

(1939-1945-yillar misolida)

UO‘K 63(485.1)



**Firuza
JUMANIYAZOVA,**
Xorazm Ma'mun
akademiyasi katta ilmiy
xodimi, tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori.

Annotatsiya: Maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyati davriy matbuotining targ‘ibot yo‘nalishlari, gazeta sahifalarida front va front orti voqealarining yoritilishi masalasi tahlil etiladi.

Аннотация: В статье анализируются пропагандистские направления Хорезмской региональной периодической печати в годы Второй мировой войны, вопросы освещения фронтовых и тыловых событий на страницах газет.

Annotation: The article analyzes the propaganda directions of the Khorezm regional periodical press during the Second World War, issues of coverage of front and rear events on the pages of newspapers.

Kalit so‘zlar: davriy nashr, gazeta, viloyat, tuman, maqola, front, front orti.

Ключевые слова: периодическое издание, газета, область, район, статья, фронт, тыл фронта.

Key words: periodical, newspaper, region, district, article, front, rear of the front.

Ikkinchi jahon urushi davrini tahlil qilishda juda ko‘plagan materiallar, arxiv hujjatlari tadqiqot doirasiga tortilgan bo‘lsa-da, ammo shunday bir manba borki, bu urush yillarida nashr qilingan va shu davr ruhini o‘ziga singdirgan davriy matbuot materiallari hali -hamon chuqur tadqiq qilinmadi. Aynan davriy matbuot materiallarini tahlil qilish orqali biz front va front ortida kechgan jarayonlarni asl holida ko‘rishimiz mumkin.

1939-1945 yillar davomida ikkinchi jahon urushi front va front orti hayotini o‘z sahifalarida aks ettirgan Xorazm viloyati davriy matbuoti materiallari ikki guruhga bo‘linadi. 1) Viloyat gazetalari. 2) Tuman gazetalari. Aynan urush yillarida Xorazmda ikkita viloyat va beshta tuman gazetalari nashr qilingan[1].

1920-yildan buyon nashr qilinib kelayotgan “Inqilob quyoshi” gazetasi 1939-yil 3-avgustdan boshlab “Xorazm haqiqati” nomi bilan chop qilina boshlangan. 1939-yildan to 1941-yilgacha bo‘lgan davrda viloyat gazetalarida chop qilingan maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gazeta sahifalarida viloyatda amalga oshirilayotgan ishlarning yillik rejalari, planlarning bajarilishi, shu sohalarda mehnat qilgan xodimlar faoliyati, jahonda bo‘layotgan voqea-hodisalar tahlili yoritilgan. Gazetalarning sahifalarida berilgan turli xil ko‘rinishdagi jadvallar, fotosuratlar, grafikli chizmalar viloyatda ishlab chiqarish jarayonini ko‘rsatib bergan.

1941-yilga kelib ikkinchi jahon urushiga sobiq ittifoq tarkibidagi davlatlarning jalb etilishi bilan gazeta sahifalarida berilayotgan materiallar mavzusi ham o‘zgargan. Endilikda gazetalar sahifalaridan front, harbiy safarbarlik, jang maydonlaridan lavhalar, viloyatda kechayotgan jarayonlar, front orti voqealari o‘rin olgan.

1941-1945-yillarda Xorazm viloyati davriy nashrlarida ikkinchi jahon urushi masalalariga oid materiallar o‘n yettita yo‘nalishdagi mavzularda o‘z aksini topdi. Jumladan: 1)Ikkinchi jahon urushi haqida rasmiy hujjatlar masalalari yoritilgan maqolalar; 2)Ikkinchi jahon urushi mavzusida umumiy masalalar berilgan materiallar; 3)Frontga harbiy safarbarlik, xorazmliklarning frontdagi jasoratlari haqidagi maqolalar; 4)Ikkinchi jahon urushi yillarida iqtisodiyot sohasida olib borilgan ishlar yoritilgan materiallar; 5)Ikkinchi jahon urushi yillarida sanoat sohasidagi o‘zgarishlar, mahalliy ishlab chiqarish artellari faoliyati yoritilgan maqolalar; 6)Ikkinchi jahon urushi yillarida transport tizimi faoliyatiga oid materiallar; 7)Ikkinchi jahon urushi yillarida qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari bo‘lgan paxtachilik, polizchilik, bog‘dorchilik sohasidagi ishlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan maqolalar; 8)O‘zbekistonliklarning frontga yordami tumanlar, zavod va fabrikalar, maktablar, qishloqlar kesimida yoritilgan materiallar, 9) Xorazmliklarning G‘arbiy hududlarni tiklashdagi ishtiroki masalalari keltirilgan maqolalar; 10)Ikkinchi jahon urushi yillarida ilm-fan

sohasidagi muammolar va o'zgarishlar yoritilgan materiallar; 11) Ikkinchi jahon urushi yillarida maorif va ta'lim tizimidagi yutuq va kamchiliklar berilgan maqolalar; 12) Ikkinchi jahon urushi yillarida sog'liqni saqlash sohasi faoliyati, kasalxonalar va urush davridagi yuqumli kasalliklar, ularni davolagan shifokorlar hamda frontga ketgan hamshiralar faoliyati berilgan maqolalar; 13) Ikkinchi jahon urushi yillarida bolalarga g'amxo'rlik masalasi yoritilgan materiallar; 14) Ikkinchi jahon urushi yillarida madaniy hayot aks etgan maqolalar; 15) Ikkinchi jahon urushi yillarida adabiyot sohasi faoliyati yoritilgan materiallar; 16) Ikkinchi jahon urushi yillarida matbuot sohasiga oid maqolalar; 17) Ikkinchi jahon urushi yillarida kutubxonalar faoliyati yoritilgan materiallar.

Urush boshlangan dastlabki davrlarda gazetalarining sahifalarida ikkinchi jahon urushi haqida rasmiy hujjatlar berib borilgan[2]. Bundan tashqari, viloyat gazetalarida urush mavzusida umumiy masalalar, ya'ni front o'choqlaridan ma'lumotlar keltirilgan o'n ikkita maqola chop qilinib, ular A.Arnaldov, B.Asrorov, Ye.Koryavichev, G.Krilov, N.Markovskiy, R.Masharipov, R.Nurmatov, S.Puxov, A.Sariboev, M.Travskiy, V.Shilkin, D.Shchukinlar muallifligida tayyorlangan edi[3].

“Xorazm haqiqati” gazetasida frontga harbiy safarbarlik, xorazmliklarning frontdagi jasoratlari keltirilgan 22 ta maqola e'lon qilingan bo'lib, ular N.Avdeev, Ye.Belozerskiy, F.Vosiqov, L.Gyune, A.Yovbosarov, J.Jabborov, T.Juravlev, F.Zohid, A.Kalilin, F.Karishov, Y.Mahmudov, V.Milovaskiy, A.Murodov, A.Rajabov, K.Rahimov, M.Xudoyberganov, S.Xudoynazarov, B.Mahmudov, B.Qurbonboyev, Yu.Qutlimurodovlar muallifligida chop qilingan edi[4].

“Xorazm haqiqati” gazetasining 1914-1945-yillarga oid taxlamalarini tahlil qilish natijasida ikkinchi jahon urushi yillarida iqtisodiyot sohasida olib borilgan ishlar yoritilgan 9 ta, sanoat sohasidagi o'zgarishlar, mahalliy ishlab chiqarish artellari faoliyati yoritilgan 37 ta, transport tizimi faoliyatiga oid 12 ta maqola chop qilinganligi aniqlandi. Ushbu materiallar X.Bobojonov, J.Davletov,

B.Dyukarev, S.Iskandarov, Yo‘ldoshev, M.Sobirov, S.Eshmatov, H.Abdullayev, R.Bobojonova, A.Devonova, G.Jarkov, M.Imayev, B.Katok, P.Murodova, A.Nurulla, M.Polvanov, I.Perlovich, E.Rahim, X.Rahimov, A.Xolmatov, M.Xudayberganov, A.Qurbonov, X.Hasanov kabi mualliflar tomonidan nashrga tayyorlangan.

Gazeta sahifalarida ikkinchi jahon urushi yillarida qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari hisoblangan paxtachilik, polizchilik, bog‘dorchilik sohasidagi ishlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan 53 ta, xorazmliklarning frontga yordami tumanlar, zavod va fabrikalar, maktablar, qishloqlar kesimida yoritilgan 103 ta, ko‘chirib keltirilgan bolalarga g‘amxo‘rlik masalasi berilgan 15 ta, G‘arbiy hududlarni tiklashda Xorazm farzandalarining ishtiroki masalalari keltirilgan 7 ta maqola V.Adayev, O.Aliyev, K.Ahmedov, X.Bobojonov, S.Baxtiy, X.Bekberganov, M.Bobojonov, R.Bobojonov, H.Boytoyev, O‘.Rahimova, O.Bozorov, G.Jarkov, A.Zarichniy, X.Yo‘ldoshev, Yu.Mavlonxo‘jayev, O.Nazar, E.Maxmudov, G.Masharipova, M.Xudoyberganov, T.Xudakova, Q.Xudoyberganov, I.Abdullayev, O.Bekchonov, M.Jumamurodov, N.Ibroximova, M.Matyobubov, Q.Matchonov, A.Rajabov, O.Otajonov, E.Rahim, Y.Abdullayev, X.Hasan va boshqa mualliflar tomonidan tayyorlangan[5].

Urush yillarida davriy matbuot sahifalarida ilm-fan sohasidagi muammolar, o‘zgarishlar, o‘quv mashg‘ulotlari, qisqa muddatli kurslar, oliy ta’lim muassasalari faoliyati yoritilgan 7 ta, maorif va ta’lim tizimidagi yutuq va kamchiliklar berilgan 26 ta, sog‘liqni saqlash sohasi faoliyati, kasalxonalar va urush davridagi yuqumli kasalliklar, ularni davolagan shifokorlar hamda frontga ketgan hamshiralar faoliyati berilgan 16 ta maqolalar e’lon qilindi. Gazeta sahifalarida berilgan ushbu materiallar Ye.Alekseev, M.Velikanov, A.Nasimov, S.Xarin, N.Feyginson, V.Shekin, F.Bloxin, S.Galimova, A.Dulko, Ya.Jumanazarova, M.Inoyatov, A.Karimova, V.Karimov, N.Mahkamova,

S.Ollayorov, A.Qoriev, R.Bobojonova, Yo.To‘raqulov, Z.O‘rozboeva, B.Quronboev, R.G‘afforov va boshqalar tomonidan tayyorlangan edi[6].



Xorazm viloyati davriy matbuoti sahifalarida urush yillarida viloyat madaniy hayoti aks ettirilgan 12 ta, shoir, adib, san'atkorlar faoliyati yoritilgan 45 ta, matbuot sohasiga oid 7 ta, suronli yillarda viloyatda tashkil qilingan ko'chma kutubxonalar faoliyati yoritilgan 4 ta maqola chop qilindi. Ushbu maqolalar R.Boyjonova, B.Do'smatov, A.Nurilla, V.Fayozov, M.Xudoyberganov, L.Ayupov,

Sh.Boltayev, Sh.Devonov, R.Nurmatov, A.Putilina, J.Rahimovlar tomonidan yozilgan. Gazeta sahifalarida berilgan urush davri adabiyotiga oid materiallar Ayyomiy, R.Zufariy, Q.Ismoilov, E.Rahim, Q.Kamoliy, Kamtarin, R.Rajab, Yu.Sherjonov, N.Yaxshim, R.Yaqub kabi shoirlarning ijod namunalaridan parchalar edi[7].

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, gazetalar sahifalarida 1939-1941-yilgacha bo'lgan davrda nashr qilingan maqolalarda dunyoda bo'layotgan voqea- hodisalardan tashqari, viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot yoritilgan bo'lsa, 1941-1945-yillarda asosan front va front orti hayotiga oid materiallar berib borildi. Bu maqolalarni aynan gazeta xodimlari tayyorlashmadi, balki maqolalar ijtimoiy hayotning qaysi jabhasiga tegishli bo'lsa, o'sha sohalarda faoliyat olib borayotgan xodimlar tomonidan yozib, nashrga berilgan edi.

Bundan tashqari, ikkinchi jahon urushi davrida nashr qilingan gazetalar nafaqat shu davr ma'lumotini o'zida mujjassamlashtirdi, balki targ'ibotchilik



faoliyatini ham amalga oshirdi. Gazeta sahifalarida berilgan turli xil chaqiriqlar, frontda askarlarimizning jasoratlari front orti qatlamining g'alabaga bo'lgan ishonchini orttirsam, askarlarga yuborilgan maktublar frontdagi g'alabani ta'minlashga xizmat qildi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati:

1. F.Jumaniyazova. Xorazmliklarning front orti hayotini yoritishda "Xorazm haqiqati" gazetasining o'rni // TAMADDUN NURI /THE LIGHT OF CIVILIZATION ISSN 2181-8258IF-9.347DOI10.69691 2025-yil,4-son (67) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 225-bet.
2. Gitlarning yana bir soxta hujjati // Xorazm haqiqati. – 1942. – 11 oktyabr.
3. Xorazm viloyati davlat arxivi. 346-jamg'arma, 1-ro'yhat, 21-ish.
4. Xorazm viloyati davlat arxivi. 622-jamg'arma, 1-ro'yhat, 19-ish; 346-jamg'arma, 1-ro'yhat, 21-ish; 622-jamg'arma, 1-ro'yhat, 24-ish.
5. Xorazm viloyati davlat arxivi. 622-jamg'arma, 1-ro'yhat, 19-ish; 622-jamg'arma, 1-ro'yhat, 20-ish; 346-jamg'arma, 1-ro'yhat, 21-ish; 346-jamg'arma, 1-ro'yhat, 22-ish; 623-jamg'arma, 1-ro'yhat, 12-ish; 622-jamg'arma, 1-ro'yhat, 24-ish.
6. Xorazm viloyati davlat arxivi. Xorazm haqiqati gazetasining 1941-1945 yillarga oid yig'ma jildlari.
7. Xorazm viloyati davlat arxivi. 622-jamg'arma, 1-ro'yhat, 19-ish; 622-jamg'arma, 1-ro'yhat, 20-ish; 346-jamg'arma, 1-ro'yhat, 21-ish;

TARIX

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA XORAZM VILOYATIDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATI



**Yulduz
XAMDAMOVA,**

**Xorazm viloyati
IIB xodimi, tarix
fanlari bo'yicha
falsafa doktori**

UO'K 94(575.171)

Annotatsiya: Maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Xorazm viloyatida ichki ishlar organlarining tuzilmasidagi o'zgarishlar tahlil qilingan bo'lib, bu davrda militsiyaning yangi bo'linmalari tashkil etilib, ular jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishgani bayon etilgan.

Аннотация: В статье анализируются изменения в структуре органов внутренних дел Хорезмской области после Второй мировой войны, отмечается, что в этот период были созданы новые подразделения милиции, работавшие в тесном сотрудничестве с общественностью.

Annotation: The article analyzes the changes in the structure of the internal affairs bodies of the Khorezm region after the Second World War, it is noted that during this period new police units were created that worked in close cooperation with the public.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, Xorazm, viloyat, ichki ishlar organlari, kartochka tizimi, jinoyat qidiruv, jamoatchilik.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Хорезм, область, органы внутренних дел, карточная система, уголовный розыск, общественность.

Key words: Second World War, Khorezm, region, internal affairs bodies, rationing system, criminal investigation, public.

Sovet davlatida Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ham davlat faoliyati partiyaning totalitar hukmronligi bilan belgilandi. Asosan markaz manfaatlaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston Iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish rejalari tuzildi. Bu rejalarda O'zbekistonga faqat xom ashyo yetkazib beruvchi qo'shimcha manba deb qaraldi. O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi va uning viloyatlardagi tuzilmalaridagi rahbarlik lavozimlarini yevropa millatiga mansub kadrlar hisobiga to'ldirish avjiga chiqa boshladi.

Urushdan keyingi yillarda xalq xo'jaligining barcha sohalarida amalga oshirilgan o'zgarishlar jarayonida ichki ishlar organlarining tarkibiy tuzilishi, strukturasi va faoliyatiga tegishli bir qator huquqiy-normativ hujjatlar ham qabul qilindi. 1946-yil 15-martda SSSR Oliy Soveti tomonidan "SSSR Xalq Komissarlar Sovetini Ministrlar Soveti deb o'zgartirish haqida Qonun" qabul qilinib, unga asosan Ichki ishlar xalq komissarligining nomi Ichki ishlar

ministrliги deb o'zgartirildi [4]. 1948-yil fevral oyida SSSR Ichki ishlar ministrliги Militsiya bosh boshqarmasi tarkibida tergov bo'limining tashkil etilishi natijasida militsiya operativ bo'limlari tomonidan qo'zg'atilgan jinoiy ishlarning ochilishida ijobiy natijalarga erishila boshlandi[5].



Urushdan keyingi yillarda hukumat tomonidan militsiya faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ko'p ishlar qilindi. Ayniqsa, uning aholi bilan hamkorligi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston ittifoqda birinchi bo'lib qishloq joylarida jamoat tartibini saqlashda tayanch punktlarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi va bu tashabbus boshqa respublikalarga yoyildi. Unga muvofiq, Xorazm viloyatidagi barcha qishloqlarda ana shunday tayanch punktlari tashkil etildi va ular jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar

xavfsizligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari xodimlarining eng yaqin ko'makdoshlari bo'ldilar.

Tahlil qilinayotgan muammo bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning natijalari dissertatsiya va ilmiy maqolalarda aks etgan. Masalan, Avaz Yermetovning ***“O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati (1925-1991-yy.)”*** nomli doktorlik dissertatsiyasida Sovet Ittifoqi davrida O'zbekiston ichki ishlar organlarining tashkil topishi, rivojlanishi va faoliyati keng yoritilgan [1].

Q.Qodirovning “O‘zbekistonda ichki ishlar organlari tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari” nomli maqolasida O‘zbekistonda ichki ishlar organlari tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan [2].

T.Normetovning “Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston militsiya xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi matonati” nomli maqolasida Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston militsiyasi faoliyati va ularning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi roli yoritilgan. Maqolada urush paytida militsiya xodimlari qanday qiyinchiliklarga duch kelgani va ularning matonat bilan xizmat qilganliklari ta’kidlanadi [3]. Tadqiqot jarayonida tarixiy-hujjatli tahlil va qiyosiy-tarixiy metodlar qo‘llanilgan.

Urush yillarining mashaqqatli hayoti tugab, endi oldinda vayron bo‘lgan xalq xo‘jaligini oyoqqa turg‘azish kabi ulkan vazifa turardi. Militsiya xodimlari ham bu vazifani bajarishga sezilardi darajada hissa qo‘shdilar.



Mazkur davrda asosiy e’tibor jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratildi. Ayniqsa, jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda voyaga yetmaganlar o‘rtasida samarali ish olib borildi. Bu davrda Ichki ishlar ministrligi Xorazm viloyat boshqarmasiga polkovnik Nikolay Nikolayevich Bulatov rahbarlik qildi. U boshliq lavozimida 1948-yilgacha ishladi.

Bu davrda aholi oziq-ovqat va sanoat mollari bilan asosan kartochkalar orqali ta’minlanar edi. Tabiiyki, kartochka tizimi bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurash asosiy e’tiborda bo‘ldi. 1947-yilda o‘tkazilgan pul islohoti va kartochka tizimining bekor qilinishi esa aholi farovonligini oshirishga xizmat qildi.

Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan bu tadbirda militsiya ham faol qatnashdi. Bu davrda militsiya boshqarmalari tarkibiga yangi tizim bo‘lgan ilmiy-texnik bo‘linmalar shtati berildi. Natijada Xorazmda ham ekspert-kriminalist lavozimi joriy etildi. Bu mutaxassislar jinoyatni fosh etish ishiga tobora ko‘proq jalb etila

boshladi. Militsiyaga tergov chemodanlari, operativ sumkalar, fotoapparatlar ham berila boshladi [6].

Viloyatda Jinoyat-qidiruv xizmatiga 1943-1948-yillarda militsiya kapitani Grigoriy Dmitriyevich Proxorov, 1948-1952-yillarda militsiya leytenanti Petr Sergeyevich Savenkov, 1952-1953-yillarda davlat xavfsizligi katta leytenanti Sharif Garifovich Sabitov, 1953-1957-yillarda militsiya kapitani Vasiliy Kuzmich Saklakov, 1957-1962-yillarda militsiya mayori Polyoz Rahmonov, 1962-1966-yillarda militsiya katta leytenanti Yevgeniy Fedorovich Storjevskiy rahbarlik qildi.

Urushdan keyingi yillarda avtomobil transportiga ehtiyoj ortdi. Viloyatning tuproq yo'llarida juda eskirgan mashinalar harakat qilardi. Buning ustiga tajribali haydovchilar ham yetishmasdi. Salomatligi yoki yoshi jihatdan haydovchiga qo'yilgan talablarga to'g'ri kelmaydigan kishilar mashina boshqarar edilar. Bu esa davlat avtomobil inspeksiyasi xodimlari mehnatini qiyinlashtirardi. Militsiya xodimlari yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash maktablari sonini ko'paytirish, avtomobil transportini texnik jihatdan yaxshilash, yuklarning o'z vaqtida tashilishi, yonilg'i xarjiga alohida e'tibor qaratdilar. Yo'l inshootlari qurish, ta'mirlash va qayta tiklash ishlarining tashabbuskori bo'ldilar [7].

Barcha joylarda bo'lgani kabi viloyatning shahar va tumanlar ichki ishlar bo'limlari rahbariyati oldida ham militsiyani tashkiliy jihatdan mustahkamlash, uning saflarini to'ldirish va xodimlarni tayyorlash, militsiyaning faoliyatini takomillashtirish vazifalari turar edi. Chunki malakali militsiya xodimlari yetishmasdi. Tumanlar militsiya bo'limlarida ishlovchilarning, ayniqsa oddiy militsionerlarning umumiy ta'lim darajasi past edi. Chunonchi, bu davrda shaxsiy tarkib orasida militsionerlarning savodi maqtanarli darajada emas edi. Shu boisdan maxsus kechki o'rta maktablar yoki alohida sinflar tashkil qilinib, ularda ichki ishlar organlarining xodimlari o'qib, o'rta ma'lumot oldilar.

Bu davrda oliy ma'lumotli zobitlarni sohaga jalb qilishga katta e'tibor qaratildi. Natijada oliy o'quv yurtlarini bitirib kelgan yoshlar orasida Ichki ishlar idoralariga ishga kiruvchilar safi kengaydi [8].

Qirqinchi yillarning boshlarida O'zbekiston SSR hukumatining qarori bilan militsiya tizimida ham faqat xodimlar, ularning oila a'zolariga xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgandi. Xorazmda militsiya xodimlariga xizmat ko'rsatuvchi tibbiy tayanch punkti 1940-yilda tashkil topdi. Aslida 1923-yilda Xorazmda 2 ta shifoxona, 4 ta ambulatoriya va uning punktlari tashkil etilgan. Ularda 5 nafar

shifokor, 6 nafar feldsher ishlagan. 1953-1954-yillarda tibbiyot tayanch punktida 1 nafar shifokor, 1 nafar hamshira va 1 nafar kichik hamshira faoliyat ko'rsatdi, boshqalari esa o'rindoshlik yo'li bilan ishladilar.

1959-yilda viloyatlardagi tumanlarni yiriklashtirish ishlari boshlandi. Bog'ot timanining bir qismi Hazoraspga, qolgan qismi Yangiariq timaniga berildi. Yangibozor tumani Gurlanga qo'shildi, Mang'it tumani Qoraqalpog'iston ASSRga berilib, o'rniga Cholish posyolkasi olindi. Shu munosabat bilan bu tumanlarda faoliyat olib borayotgan militsiya organlarini qayta tashkil etish tadbirlari amalga oshirildi.

XX asrning 40-yillarining ikkinchi yarmi, 50-yillarida mamlakatda qonunchilikni mustahkamlash, fuqarolar xavfsizligi hamda huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish borasida chiqarilgan talablar va ko'rsatmalar Xorazm viloyatida ham izchillik bilan amalga oshirila boshladi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda barcha ichki ishlar idoralari bo'limlari, bo'linmalarida militsiya ishini yangi pog'onaga ko'tarish bo'yicha ommaviy-siyosiy va tashkiliy ishlar olib borildi. Bu davrda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida aholi va davlat organlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yermetov A.A. O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati (1925-1991 yy.). Tarix fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2019.
2. Qodirov Q. O'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari // Jamiyat va innovatsiyalar, Issue – 4 №3, 2023. – B. 138-149.
3. Normetov T.X. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston militsiya xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi matonati // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – Volume 3, Issue 10, C. 251-257.
4. Лубянка: Органы... 1917-1991. Справочник. – Москва, 2003.
5. Советская милиция: история и современность (1917-1987). - Москва: Юрид. лит., 1987.
6. Бекмухаммад У. Хива: фахр ва матонат. Хива, 2023.
7. Шовот тумани ИИБ: кеча ва бугун. Хоразм : “Ижодкор”, 2022.16-b.
8. Янгибозор тумани ички ишлар бўлими: кеча ва бугун. – Урганч: “Хоразм yoshlari”, 2023.

FILOLOGIYA**BAYONIY TARIXIY ASARLARINING LINGVISTIK
XUSUSIYATLARI**

**Madamin
ESHMURODOV,**

**Urganch innovatsion
universiteti rektori,
filologiya fanlari
doktori, dotsent.
Turon Fanlar
akademiyasi
akademigi**

UO‘K 811.512.133’373.2:254.2-24

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abulg‘ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining yaratilish jarayoni tadqiq qilinadi, shuningdek, lingvistik jihatdan tahlil etiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс создания исторических произведений Абулгази Бахадырхана, а также дается лингвистический анализ произведений.

Annotation: This article examines the process of creating the historical works of Abulgazi Bahadirkhan. The works are also analyzed linguistically.

Kalit so‘zlar: Xorazm, tarix, Xiva xonligi, qo‘lyozma, siyosiy voqealar, adabiy til, tarixiy jarayonlar, etnografiya.

Ключевые слова: Хорезм, история, Хивинское ханство, рукопись, политические события, литературный язык, исторические процессы, этнография.

The keywords: Khorezm, history, Khiva Khanate, manuscript, political events, literary language, historical processes, ethnography.

Xorazm turkiy tarixnavisligi haqida fikr yuritganda Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” hamda “Xorazm tarixi” borasida alohida to‘xtalish zarur. Ushbu ikki manba, ayniqsa, “Shajarayi Xorazmshohiy” asarining tarixiy, badiiy, ilmiy ahamiyati haqida ko‘plab olimlar fikr bildirganlar. Ayrımlari hatto ushbu asarni Munis va Ogahiy larning tarixiy asarlaridan ham ustun turishi haqida to‘xtalganlar[1].

Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asari 16 bobdan iborat. Asarning muqaddimasida uning yaratilish sabablari aytib o‘tilgan[2]. Jumladan, Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy” asarini yozish buyrug‘ini xondan Tolibxo‘ja ibn Avazberdi orqali jumod-ul-avvalning yigirma ikkinchi kuni (1329/1911-yili 10-may) oladi. Bu haqida muarrixning o‘zi shunday yozadi: Bas, arkoni davlatning mashvaratlari bila nizomi umuri mamlakatga qiyom ko‘rguzdilar, tokim, tarixi

¹ Баёний. Шажараи Жоразмшоҳий. Т.: Адабиёт ва санъат. 1994. –Б. 3-9.

² Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.
https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

hijriyning ming uch yuz yigirma to‘qquzlanchisi va jumod-ul-avvalning yigirma ikkilanchi kuni bo‘ldi. Faqiri haqirg‘a muqarrabi borgohi falaki ishtibohlari, ya’ni Tolibxo‘ja ibn Avazberdi eshoni mag‘firatnishonning vasotatlari bila amri oliy sudur toptikim, bu jahoni nopoydorda yogdor qo‘ymoq yaxshidur va so‘zdin baqoliroq va yaxshiroq yodgor yo‘qdur[1].



Qo‘lyozma Xiva xoni Asfandiyorxon buyrug‘iga ko‘ra ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning 16-varag‘ida oltin suvi va ko‘k bo‘yoqlar bilan bajarilgan unvon mavjud. Mazkur nusxa 1333-yili, zulqa‘da oyining birinchi kuni (10-sentyabr, 1915-yili) usta Juma Niyozning o‘g‘li Muhammad Ya‘qub tomonidan nasta’liq xatida, fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan [2]. Asar 509+6 varaqdan iborat va o‘lchovi 22x29sm[3]. Ushbu nusxani 1954-yili Y.G‘ulomov nomidagi Sharqshunoslik institutiga hadya etganligi ma’lum. Undan oldin mazkur asar qaysi kutubxonada saqlangani ma’lum emas.

Bayoniyning ikkinchi tarixiy asari “Xorazm tarixi”

deb nomlangan bo‘lib, muallif asar muqaddimasida shunday yozgan: “Endi bu kengchilik va farovon zamonda Xorazm xalqi zolimlarning zulmlaridan mutloq qutuldilar va ozod bo‘ldilar, endi tinchlik bilan bu kitobni avvaldan boshlab yozaman, undagi xonlarga xush keladigan ortiqcha so‘zlar, xushomadgo‘yliklarni olib tashlab, zolimlardan qo‘rqib ayta olmagan so‘zlarni rostlik bilan yozaman”[4]. Muallifning bu so‘zlaridan asar Xorazm inqilobidan so‘ng, adolat mezoniga asoslanib yozilganligini anglash mumkin[5].

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.

https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

² Хоразмда битилган кўлёзмалар. – Тошкент.,1997. – Б.17.

³ Қаралсин: // Қўёзма .Ўз ФА ШИ. – № 9596. Яна қаранг: СБР, VII. – № 5031.

⁴ Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Т.: Адабиёт ва санъат. 1994. – Б.178

⁵ Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 40-bet. https://www.uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/3.pdf

Bayoniyning “Xorazm tarixi” nomli asari muallif rejasiga binoan 16 bobdan iborat bo‘lishi lozim edi. Asar muallif tomonidan 1339/1920-21-yili yozilgan. Undagi voqealar bayoni 1336/1918-yilgacha, ya’ni Xiva xoni Asfandiyorning vafotigacha berilishi mo‘ljallangan. Muallifning so‘ziga qaraganda, bu asar “Shajarayi Xorazmshohiy”ning to‘ldirilgan varianti edi. Biroq tavsif etilayotgan asar to‘liq emas. U faqatgina yettinchi bobning boshlanishi - xon Eltuzarning (1219-1221/1804-1806yy.) hukumati bayoni bilan tugab qoladi. Bundan asar tugallanmay qolgan degan taxmin qilish mumkin. Hozirda “Xorazm tarixi”ning yagona nusxasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi[1]. Xati nasta’liq, qog‘ozi o‘quvchi daftari, hajmi 90+1 varaq, hajmi 22x36 sm. Qo‘lyozma nusxasi XX asrning birinchi choragining oxirida ko‘chirilgan[2].

Mazkur nusxaning oxirida A.Nosirov va A.Juvonmardiyevlarning asarning qimmatligi haqidagi qaydlari ham mavjud. Tarixiy manbaning ifoda uslubi sodda va ravonligi, hodisalarga obyektiv yondashuvning ustunligi, tarixiy haqiqatni aslicha ta’riflashi, ko‘tarinki ruh, yuqori pafos, jimjimador ta’riflarning nisbatan ozligi uning tarixiy asarlarga xos jihati ekanligi bot-bot takrorlanadi.

Ushbu jihatlardan biz uchun muhim bo‘lgan taraflar – bu yuqori pafosning ozligi, xon, bek va boshqa yuqori mansabdagi shaxslarning ta’rif-tavsiflarida musajja’ usulining nisbatan kamligi, ifoda uslubining soddaligi, she’riy bezaklardan foydalanish mahorati, asar leksikasidagi o‘zlashma qatlam, davlatchilikka oid terminologiya birliklaridan foydalanish darajasi kabi jihatlardir. “Shajarayi Xorazmshohiy”ning lingvistik tahlilini amalga oshirishda ushbu xususiyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Shular asosida ijodkorning xos uslubi, asardagi o‘zlashmalar qatlami, o‘zlashmalarning asar badiiyatida tutgan o‘rni va ahamiyati, davlatchilikka oid terminlardan foydalanishdagi o‘ziga xosliklar, ichki va tashqi siyosatga oid terminologik tizim, asarda tilga olingan kasb-kor otlari[3], antroponimlar va umuman, onomastik tizim kabi tilshunoslikning dolzarb masalalariga ma’lum darajada aniqlik kirituvchi tomonlarga e’tibor qaratamiz.

Eng avvalo, “Shajarayi Xorazmshohiy”dagi o‘zlashmalar tizimiga xos xususiyatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak: asar leksikasında shu davrdagi barcha tarixiy asarlardagi kabi arabiy va forsiy so‘zlarning salmog‘i katta. Ammo asardagi arabiy va forsiy o‘zlashmalar ham nisbatan soddaroq, oson tushuniladigan so‘zlar ekanligini ta’kidlash zarur: Vaqtekim, Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy sariri saltanatda qaroro tutdilar, shuaro va fuzalo hayli juluslari uchun

¹ Қаранг: // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 7421. Яна қаранг: СБР, VII. – № 5034.

² Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 40-bet.


https://www.uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/3.pdf

³ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.

https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

torixlaru qasidalaru masnaviylar oytib, in'omi shohona va atoyi xusravonadin sarshor bo'ldilar.

O'zlashmalar "Shajarayi Xorazmshohiy"dagi badiiy-tasviriylar vositalarining yuzaga kelishida katta ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, "Shajarayi Xorazmshohiy"dagi so'zlar ohangdoshligini aksariyat hollarda ayni o'zlashmalar qatlami ta'minlaydi: Bas, tamomi oboyi izomu ajdodi kiromlarimizning voqeotu holatlarin ilo yavmino hazo takallufoti munshiyonadin oriy bo'lg'on iboroti mutadovalaning zimnida majozu istioradin kanora tutib, iyyozu ixtisor bilan tarix sahifasig'a sabt etilgay, tokim ommayi atrok eshitgan hamono betaraddudi xotir fahmlagaylar".



Parchadan ko'rinib turibdiki, ijodkor maxsus omma uchun bir tarix yaratishni va omma uni betaraddud fahmlashini orzu qilgan. Shu sabab ham "Shajarayi Xorazmshohiy"dagi murakkab jumlar, o'quvchi uchun tushunilishi qiyin bo'lgan arabiy va forsiy o'zlashmalar faqatgina hamd, na't qismida uchraydi. Asarning boshqa o'rinlarida oddiy ifoda ustunlik qiladi.

"Shajarayi Xorazmshohiy"dagi she'riy bezaklarga to'xtaladigan bo'lsak, muarrix she'riy qismlarda asosan, o'z qalamiga mansub she'riy parchalardan, shuningdek, Munis va Ogahiyning she'rlaridan ham foydalangan. Ular orasida o'zbek tilida ham, fors tilidagilar ham mavjud. Biz asardagi she'riy bezaklarni mutolaa qilib, bemalol Bayoniyni zullisonayn shoir deb aytishimiz mumkin:

Bayon aylayin zo'ri andozasin,
Olib otdi Xaybarni darbvozasin^[1].
Bayoniy chu ul erdi sheri Xudo,
Degil so'z uzotmay onga jon fido.

"Shajarayi Xorazmshohiy"da forsiy she'riy matnlar ham yuqori saviyada bitilgan. Vazn mukammalligiga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan kelib chiqadiki, muarrix she'riy ta'limni mukammal o'rgangan:

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.
https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

Dar hama vaqt on shahi olam,
 Bod xushvaqt, xushdilu xurram.
 Ahli Xorazm zu shuda xushhol,
 Karda bar xud duoyi alzam[1].

Ma'nosi: Ey olam podshohi, har dam xushvaqt, xushdil va xurram bo'lg'in. Xorazm ahli xushhol bo'lib, sen uchun lozim bo'lgan duolarni qilmoqdalar.

Tadqiqot uchun eng muhim bo'lgan lingvistik xususiyat – bu, so'zsiz, "Shajarayi Xorazmshohiy"da qo'llangan davlatchilikka oid bo'lgan terminlar tizimidir. Ta'kidlash zarurki, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid bo'lgan manbalar orasida o'zining leksik tizimi bilan boshqalaridan aslo qolishmaydigan ushbu asarda davlatchilikka oid ko'plab tushunchalarni ifodalovchi terminlar mavjud. Xususan, davlat tushunchasini ifodalovchi *davlat*, *saltanat*, *mamlakat*, *viloyat*, *nohiya*, *xonlik*, *mulk*, *mamolik*, *yurt*, *hukumat* kabi so'zlar shular jumlasidan: Jarchilar ko'chalarda "Davri-davri Muhammad Rahim Bahodirxon!" – deb munodo ura berdilar. **Viloyat**da ajab bir xushhollik dast berdi; Hamma **yurt** ulug'larining ittifoqlari bilan Bobojon to'ra, ya'ni Muhammad Rahim to'ra ibni Sayyid Muhammadxoni jannatmakon xon bo'lub, taxti **davlat**da o'lturdilar; Abul-Muzaffar va al-Mansur Sayyid Asfandiyor Muhammad Bahodirxon "xalladallohu mulkahu va sultonahu va afoza alal olamin birrahu va ehsonahu" (Alloh uning mulku saltanatini abadiy etsin hamda ezgulik va ehsonlarini olamga yoysin) Xorazmi Erambazmning taxti **saltanat**ida o'lturdilar; Bas, arkoni davlatning mashvaratlari bila nizomi umuri **mamlakat**g'a qiyom ko'rguzdilar...[2]

Shahi hukmron turki omil qani?

Hukumat rusumida komil qani[3]?

Albatta, bu davlat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim davlatchilik atamalarining qisqacha izohi va ularga asardan keltirilgan ayrim misollar, xolos. Ishning keyingi boblarida ushbu atamalarga to'liq izoh berilib, ularning tarixiy ildizlarini yoritishga harakat qilinadi.

Ushbu o'rinda davlat tushunchasi bilan bog'liq atamalar izohlanar ekan, albatta, davlat boshlig'i tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar ham tarixiy asar leksikasida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash joiz. Davlat boshqaruvchisi tushunchasi davlat tushunchasi paydo bo'libdiki, yashab kelayotgan, u bilan yonma-yon tilga olinadigan tushuncha hisoblanadi. Mulk –

¹ Баёний. Шажараи Жоразмшоҳий. Т.: Адабиёт ва санъат. 1994. –Б. 12.

² Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.

https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

³ Баёний. Шажараи Жоразмшоҳий. Т.: Адабиёт ва санъат. 1994. –Б. 20.

molik, hokim – hukumat, voliy – viloyat, sulton – saltanat (sultonlik), xon – xonlik, podshoh – podshohlik, imperator – imperiya, xoqon – xoqonlik kabi tanosublar aynan shu sababli ham paydo bo'lganligi shubhasiz. Shu o'rinda Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asari leksikasida uchraydigan davlat boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog'liq bir qancha davlatchilik terminologiyasi birliklarini tahlil qilib, asardan ular qatnashgan misollarni keltirib o'tamiz.

Asarda davlat boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog'liq atamalar yuqorida ta'kidlangani kabi, davlat tushunchasi bilan bog'liq holda tahlil qilingani ma'qulroq. Demak, nohiya so'zi davlat ma'nosida qo'llansa, uni boshqaruvchi noib so'zi ham ayni davlat boshqaruvchisi ma'nosida qo'llanadi. Viloyat so'zi davlat ma'nosini ifodalasa, muarrix voliy so'zini ham ayni davlat boshqaruvchisi ma'nosida istifoda etayotgan bo'ladi. Ba'zan viloyat, nohiya kichik bir hudud, shu sabab noib yoki voliy so'zi ham davlat boshqaruvchisi bo'la olmaydi degan fikrni ilgari suradilar. Lekin mumtoz adabiyotimizda aksariyat hollarda biz bugun davlat emas, kichik hudud ma'nosida qo'llayotgan so'zlarimiz butun bir davlat ma'nosida, uni boshqaruvchi hokim, voliy, noib kabi so'zlar esa aksar hollarda davlat boshqaruvchisi ma'nosida qo'llanganini kuzatamiz. Bunda ushbu tushunchalar va so'zlarning diniy mazmuniga ham e'tibor qaratilgan¹. Shoh, sulton, podshoh va boshqa davlat boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog'liq so'zlar asosan Yaratganga nisbat bergan holda qo'llangan, voliy, hokim, noib kabi so'zlar esa Yaratgan bergan iqbol tufayli uning yerdagi noibi ma'nosida davlat boshqaruvchisi ma'nosida ham, har qanday boshqaruvchi (hukmdor, viloyat boshqaruvchisi, ish boshqaruvchi kabi) ma'nosida ham istifoda etilgan. Bu holatni, ayniqsa, Navoiyda ko'p uchratamiz. Navoiyni o'ziga ma'naviy ustoz deb bilgan undan keyingi barcha ijodkorlarda ham shu holatni uchratishimiz esa, bizningcha, g'ayritabiiy holat emas.

Yetti gunbadki, anglading oliy,
Yetti ayvon aro yetti **voliy**.

Bu yeti gunbadi sipehr erdi,
Ichida yetti mehr chehr erdi.

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.
https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

Ko‘rinib turganidek, ushbu o‘rinda voliy o‘zlashmasi ish boshqaruvchi, boshliq ma’nosida qo‘llanmoqda.

Anda bir shoh hokimu **voliy**,
Mulki ma’muru himmati oliy.

Oti Nu’monu mulki oti Yaman,
Adlidin mulki gulistonu chaman¹.

Dostonning mazkur baytlarida esa Navoiy o‘zlashmani hukmdor, shoh ma’nosida istifoda etmoqda.

“Shajarayi Xorazmshohiy”da ko‘p hollarda biz hukmdor ma’nosida **xon** so‘zi qo‘llanganini kuzatdik. Ammo ba’zi o‘rinlarda davlat boshqaruvchisi ma’nosida boshqa so‘zlarni ham qo‘llash holatlari kuzatiladi: **Xon** hazratlari amr etdilar: “Suvni bog‘lab yamut tarafiga suv o‘tkarmasunlar”.

Ey, **shohlarg‘a** sandin erur joh taxti toj,
Ehsoni adldur sani amring bila rivoj.

Shahriyor – shahr hukmdori ma’nosidagi o‘zlashma “Shajarayi Xorazmshohiy”da, ayni damda, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid boshqa manbalarda ham aksar hollarda xon, podshoh so‘zlari bilan o‘rin almashib, sinonim so‘z sifatida qo‘llanilib kelinadi. Alloh taoloning qazovu irodati va ahli Xorazmning rizovu jam‘iyatlari bilan hazrati **shahriyori** boviqor... Mazkur parcha davomida davlat boshqaruvchisi ma’nosida muarrix bir necha so‘z va izofiy birikmalarni keltirib o‘tadiki, ularning barchasi mazmunan xon, hukmdor ma’nosini ifodalaydi: **sipahdori** lutfshior, **moyili avomir**, ilohi **qobili taxti xorazmshohiy**, **vorisi toji mukarramat**, xorisi bazri marhamat, robiti raboti amni amon, bositi bisoti adlu ehson, as-**sulton** ibn as-sulton...^[2]

Muarrix keltirilgan forsiy tarixlaridan birida shunday deydi:

Shoho, muborakat bod in toji xusravoniy,
Dar taxti izzatu joh umri tu jovidoniy.

Ya’ni, Ey shoh, senga ushbu xusravoniy toj muborak bo‘lsin, taxtingda umring oxirigacha izzatda bo‘l.

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda bir e’tiborli jihatni ta’kidlash zarur. Xon termini tarkibiy qism sifatida muarrixlarning asarlarida, odatda, hukmdor ismi aytilib, ismdan so‘ng **xon** komponenti qo‘shilgan holda

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XI том. Т. Фан. 1992. –Б. 306.

² Баёний. Шажараи Жоразмшоҳий. Т.: Адабиёт ва санъат. 1994. –Б. 12.

tilga olinadi. Xususan, Abulg‘ozi Bahodirxon, Muhammad Rahimxon, Sayyid Muhammad Bahodirxon, Shergo‘zixon, Eltuzarxon, Olloqulixon, Asfandiyorxon kabi. Xon ismi oldidan yoki so‘ngidan keltirilgan xoqon, sulton, shoh kabi davlatchilikka oid birliklar odatda ta‘kid, kuchaytirish, ulug‘lash, madh kabi subyektiv munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu so‘zlar matnda ham o‘ziga xos vazifalarni bajarishi mumkin. Chunonchi, tanosubni yuzaga keltirish, tajnis, ishtiyoq, tavzi‘, saj‘ kabi lafziy va ma‘naviy san‘atlarni, ayniqsa, musajja‘ usulini yuzaga keltirish jarayonida ham hukmdor ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar faol qatnashganligini ta‘kidlash zarur^[1]. Shuningdek, ayrim hollarda hukmdor tushunchasini ifodalovchi so‘zlar yakka holda ham qo‘llanishini e‘tibordan soqit qilmaslik zarur: Bu yil **xon** hazratlari Peterburg‘ safari azmin jazm etib, jumodul avval oyining yigirma beshi va javzoning sakkizlanchisi va dushanba kunida otlanib Peterburg‘ tarafig‘a ravon bo‘ldilar.

Yo‘q surur ishrat ermas bahordinkim,

Sultoni odil o‘ldi el ichra lutfgustar.

Ismi sharifi Sayyid Asfandiyor **sulton**,

Yetmish atolaridur olamga elga sarvar^[2].

Bas, hijratning mingu uch yuz yigirma sakkizlanchisi va sunbulaning yigirma beshu sha‘boni muazzamning yigirma to‘rtlanchisi va dushanba kunindakim, oftobning gurubig‘a ikki yarim soat qolib erdi, hazrat **shahzodayi valiahd** Sayyid Asfandiyor **to‘ra** doma umrahu muborak boshlarig‘a jig‘ali telfakni kiyib **xon** bo‘lub ota taxtida o‘lturdilar.

Shahanshoh – shohlarning shohi, peshvosi, rahnamosi ma‘nosida mumtoz adabiyotimizda keng qo‘llangan.

Ilohi, **shahanshohi** kishvarpanoh,

Kim, uldur karamli, adolatli **shoh**^[3].

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asari Xorazm turkiy tarixnavisligida muhim ahamiyat kasb etuvchi manbadir. Eng avvalo, asar rus bosqini davri hamda undan keyingi Xiva xonligi tarixi, Xiva xonlarining mazkur davrdagi ma‘rifatparvarlik, birdamlik,

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

² Баёний. Шажарай Жоразмшохий. Т.: Адабиёт ва санъат. 1994. –Б. 101.

³ Баёний. Шажарай Жоразмшохий. Т.: Адабиёт ва санъат. 1994. –Б. 94.

savdo-sotiqni rivojlantirish, xalq tinchligini saqlash kabi yurt ravnaqi va ozodligi yo'lida amalga oshirgan sa'y-harakatlari, Xiva xonligidagi xalqning ruhiy va ma'naviy ahvoli, hukumatdagi bo'lgan o'zgarishga munosabatlar, mahalliy urug'larning ichki nizolari, ularning o'zbek xalqini Rusiyaga qaramligini toborqa chuqurlashtirishga sabab bo'layotganligi va, umuman, tarixan qiyin bir davr, muarrixlar tomonidan to'liq aks ettirilmagan va yolg'onlarga yo'g'rilgan o'zbek xalqining murakkab tarixiy sahifalarini yoritishga bag'ishlangani bilan biz uchun juda qimmatli tarixiy asar. Ikkinchidan, eski o'zbek adabiy tilining so'nggi bosqichi va hozirgi o'zbek adabiy tili shakllanayotgan bir davrda yaratilgan, tilning shu davrdagi butun bo'y-bastini ko'rsatib berishga xizmat qiladigan yana bir lingvistik manba sifatida ham mazkur asar ilmiy ahamiyati jihatidan salmoqlidir. Shu sababli ham biz ushbu tarixiy manbalarning lingvistik qimmatini ko'rsatib bermoqdamizki, ular eski o'zbek adabiy tilining so'nggi davrini yoritishda shu paytgacha deyarli tilga olinmas edi. Demak, tilning qaysi bir davrdagi holatini tahlil qilar ekanmiz, shu davrdagi barcha adabiy, ilmiy, tarixiy asarlar biz uchun muhim lingvistik manba bo'lib xizmat qila oladi. Chunki ular shu davrning jonli tilini bizga ko'rsatib beradi^[1].

Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asari O'zbekiston tarixida nisbatan kam o'rganilgan rus bosqini davridagi Xiva xonligida yuz bergan voqealarni aniqlashtirishda hamda shu davrdagi eski o'zbek adabiy tilining so'nggi bosqichi hamda hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanish davriga oid leksik birliklarni tadqiq qilishda muhim lingvistik manba bo'lib xizmat qiladi.

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.
https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

FILOLOGIYA

AHMAD TABIBIY DEVONLARINING NOMLANISHI XUSUSIDA

UO‘K 512.71



**Saboxat
RAXIMOVA,
Muhammad
al-Xorazmiy nomidagi
ixtisoslashtirilgan
maktab
ona tili va adabiyot fani
o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Tabibiy devonlari va ulardagi turlicha nomlangan manbalar asosida tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются диваны Ахмада Табиби и по-разному названные источники в них.

Annotation: This article analyzes the divans of Ahmad Tabibi and the variously named sources in them.

Kalit so‘zlar: shoir, forsiy devon, tazkira, taxallus, turkiy devon, Sulton, oshiqlar, tuhfa.

Ключевые слова: поэт, персидский диван, тазкира, псевдоним, турецкий диван, султан, влюбленные, подарок.

Key words: poet, persian divan, tazkira, pseudonym, Turkish divan, Sultan, lovers, gift.

Shoir haqida uning zamondoshi va Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz saroyida birga xizmat qilgan boshqa bir shoir va davlat arbobi Bobojon Tarroh o‘zining “Xorazm navozandalari” asarida shunday yozadi: “Shoirning ismi – Ahmadjon, otasining ismi Ali Mahram bo‘lg‘on. Shoirni adabiy taxallusi Tabibiy bo‘lg‘on. Bu nomni Muhammad Rahim ikkinji qo‘yg‘on emas. Muni sababi shoir Ahmadjonning otasi Ali mahram degan kishi eski saroyda charchilik qilar edi. Ahmadjon otasining charchi do‘konida xalqg‘a dori tayyorlab berar edi. Yaxshimurodbek degan kishi bor edi va bu Yaxshimurobdek yaxshi tabib edi, Ahmadjonni shu kishiga shogird qilib bergan. Ahmadjon Xevaning tashqarisidagi qal‘ada, Yusuf yasovulboshi qo‘vmida tug‘ilgan. Uning otasi Erondan olib kelinib sotilg‘an qul bo‘lg‘oni uchun uni kambag‘al oiladan chiqqan deyish mumkin. Uning shoir sifatida tanilishig‘a Muhammad Rahimxon ikkinchining gurunglari sabab bo‘lg‘oni, Xudoyberdi maxdumning tavsiyasi ila saroyg‘a olib keling‘anini biz yuqorida bayon qilg‘on edik”[Bobojon Tarroh: 141].

U “Munis ul-ushshoq” devoniga yozilgan debochada hamda 58-inventar raqamli toshbosmadagi ikkita devon debochasida shunday keltiriladi: “Po‘shida namonad ki, davovini mudavvan dar dasti in banda panj devon ast ki se turkiy va

do' forsiy. Avval yaki ro ba jihati hadiya kardani ba shahanshoh ba "Tuhfai sulton" nom nehodam. Do'vvum ba sababi unsiyati ushshoq ba "Munis ul-ushshoq" musammi soxta sho'd. Sevvo'm ba boisi onki, tamomi holati ishq az u muoyana gardad va namudor mishavad ba "Mir'ot ul-ishq" tasmiya kardam. Chahoro'm ba mujibi on ki, xondash oshiqon ro hayrat afzoyad ba "Hayrat ul-ushshoq" mavsum kardam. Panjo'm az vajhi on ki jilvagahi ishtiyoq bidelonast "Mazhar ul-ishtiyoq" go'ftam"[O'zRFAShI fondi № 58 raqamli toshbosma]. Mazkur e'tirof 8949 raqamli toshbosmada keltirilgan turkiy debochada ham takrorlanadi: "Bu faqir qo'lida jam' bo'lg'on kitobning soni besh devondur. Alarning uchitasi turkiy va ikkitasi tojikchadir. Birinchisini adolatli shohga hadya qilish sababidan "Tuhfat us-sulton" deb atadim, ikkinchi devong'a oshiqlar unsiyati sababidan "Munis ul-ushshoq" nom berildi. Uchinchisiga faqat ishq holatlaridin gapirilgan vajhidin "Mir'ot ul-ishq" deb nom qo'ydim. To'rtinchi devong'a oshiqlar o'qib hayron bo'lsinlar deb, "Hayrat ul-oshiqin" deb ism berildi. Beshinchisi bedillar ishtiyoqi jilvagohi bo'lg'oni sababidin "Mazhar ul-ishtiyoq" deb ataldi".

Avvalo, Ahmad Tabibiy devonlarining umumiy hajmi va nomlanishi xususida to'xtalsak. Garchi shoir o'zidan meros qolgan devonlar sonini 5 ta deb bersa-da, biroq Hasanmurodqori Laffasiy "Tazkirai Laffasiy" asarida bu devonlarning adadini "to'rt mujallad", deb keltiradi. Demak, ushbu o'rinda Laffasiy yanglishgan.

Debochada devonlarining uchitasi turkiy va ikkitasi forsiy ekanligini aytgan shoir hech bir o'rinda ularning qaysi biri turkiy va qaysi birlari forsiy ekanligini yozmagan. Ayni shu narsa hozirgacha tadqiqotchilarni chalkashtirib kelayotgan masalalardan biridir.

O'z ilmiy tadqiqotlarida Ahmad Tabibiyning forsiy merosiga ancha katta o'rin ajratgan eronlik olim Ibrohim Xudoyor o'z mulohozalarida shunday yozadi: "Ammo hech bir qo'lyozma yoki toshbosma devoniga mukammal holda sarlavha berilmagani uchun shoirning forsiy va o'zbekcha devonlari nomini aniqlash

mushkullik tug'dirdi. Tabibiy o'zining forscha va o'zbekcha muqaddimasida keltirilgan tartibga asosan "Tuhfat us-sulton", "Munis ul-ushshoq" va "Mir'otul-ishq" devonlarini o'zbekcha, "Hayrat ul-ushshoq" va "Mazhar ul-ishtiyoq"ni forscha deb anglaymiz. Biroq toshbosma devonlarda ba'zi devonlari yuqoridagi tartibni tasdiqlamaydi". Demak, olim shoirning o'zbekcha va forscha devoni nomlarini ularning debochada keltirilgan tartibiga qarab belgilagan.

I.Xudoyor Ahmad Tabibiyning "ammo hech bir qo'lyozma yoki toshbosma devoniga mukammal holda sarlavha berilmagan", deya kuyunadi. Vaholanki, 7083 raqamli qo'lyozma "Devoni Tabibiy forsiy, musammo ba Tuhfat us-sulton", deb, 7118 inventar raqamli qo'lyozma esa "Forsiy devoni Tabibiyning avvalg'i daftari, musammo ba "Munis ul-ushshoq" degan jumlar bilan boshlanadi. Demak, bundan ma'lum bo'ladiki, I.Xudoyor mazkur qo'lyozmalarni ko'rmagan va faqat bitta forsiy toshbosma (58-raqamli) va bitta turkiy toshbosmaga (8949) tayanib, shunday xulosalar chiqargan. "Tabibiy o'zidan ikkita mustaqil forsiy devon yodgor qoldirgan Xorazm adabiy muhitining yirik va sermahsul yagona shoiridir. Devonlarining aniq nomlanishi, yuqorida eslab o'tganimizdek biroz mushkullik tug'dirdi. Ammo 8949 inventar raqamli toshbosma nusxadagi "Hayrat ul-oshiqiyn" va "Munis ul-ushshoq" nomli ikkita devon turkiy sarlavha bilan boshlanganini hisobga olsak, shuningdek, kitob fehris (katolog)larning ko'pchiligida "Mir'ot ul-ishq" uning forsiy devonlaridan biri deb nisbat berilishini nazarda tutsak, "Tuhfat us-sulton" yoki "Mazhar ul-ishtiyoq" devonlaridan biri forsiy bo'lishi kerakki, bizningcha "Mazhar ul-ishtiyoq" devonining forsiy ekanligi haqiqatga yaqinroqdir" (3).

I.Xudoyorning bunday xulosaga kelishiga 58-raqamli toshbosmada institut xodimi, to'g'rirog'I, mazkur toshbosmani fehris (katolog)ni tayyorlagan Abdulla Nosirovning yozib qo'ygan ishoralari sabab bo'lgan. Ya'ni, kuzatganimizda undagi birinchi kelgan devon boshlangan naqsh jadvali ustiga "Mazhar ul-ishtiyoq" deb oddiy siyoh ruchkada (peroli avtoruchka) yozib qo'yilgan. Ikkinchi

devon boshlangan varaqni ayni shunday joyiga esa “Mir’ot ul-ishq” deb yozib qo‘ygan. Natijada bu yozuvlar olimning fikrini o‘zgartirgan. Ya’ni, avval boshlab “Hayrat ul-ushshoq” va “Mazhar ul-ishtiyoq”ni forsha deb anglaymiz” deb turgan olim, kitobining keyingi sahifalarida “Mazhar ul-ishtiyoq” va “Mir’ot ul-ishq”ni forsiy devon deb oladi va shu pozitsiyasida qolib, mazkur ikkala devonni Tabibiyning forsiy devonlari sifatida tahlil qiladi.

Demak, I.Xudoyor birgina 58 raqamli va 8949 raqamli toshbosmalarga asoslanib, Ahmad Tabibiyning ikkita forsiy devoni bular –“Mir’ot ul-ishq” va “Mazhar ul-ishtiyoq” devonlari deb noto‘g‘ri xulosa chiqargan. Bunga esa asosan 58-raqamli toshbosmada uni ko‘rib chiqqan Abdulla Nosirov tomonidan keyinchalik siyog‘li ruchkada yozib qo‘yilgan ikkita nom sabab bo‘lgan.

Ma’lumki, shoirning o‘zbek tilidagi devonlarini o‘rgangan adabiyotshunos olim Fathulla G‘anixo‘jaev shoir qo‘lyozmalarini tasnif qilgan. Biroq ularda keltirilgan ma’lumotlar bilan qo‘lyozmalarda chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan ko‘rinadi. Masalan, 3460 raqamli qo‘lyozma boshida shunday yozilgan: “Forsiy devoni Tabibiyning avvalg‘i daftari, musammo ba “Munis ul-ushshoq”. Vaholanki, adabiyotshunos olim Fathulla G‘anixo‘jaev bu devon haqida shunday yozadi: “Shoirning “Munis ul-ushshoq” (Oshiqlar do‘sti) nomli ikkinchi devoni o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, 1327-(1909) yilda Bobojon Tarro ibn Abdulaziz Maxdum tomonidan ko‘chirilgan. Asar 382 sahifadan iborat*. Shu qo‘lyozmaning to‘la holdagi nusxasi 1328-(1910) yilda Xivada toshbosmada bosilgan”.

Lekin yuqorida aytilganidek, biz ko‘zdan kechirgan qo‘lyozma nusxada “Munis ul-ushshoq” forsiy devon sifatida berilgan. Buni mazkur devonning boshqa bir nusxasida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, unda “Bismilloh...”dan keyin “Devoni forsiyi Tabibiy” deb yozilgan. Xullas, yuqoridagi tasniflar nimaga asoslanganini bilmadik. Shuni nazarda tutgan holda yana shoirning forsiy tildagi merosi saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma asarlarga e’tibor qaratdik.

Tabibiy forsiy devonlarining tavsifi

Biz quyida O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Devoni Tabibiyi porsiy” nomi bilan keltirilgan qo‘lyozma va toshbosmalarning tasnifini keltirib o‘tamiz:

1. № 7118 raqamli qo‘lyozma tavsifi

Ushbu kitobda 4 ta varaq forzas (kirishdagi bo‘sh qog‘ozlar) mavjud. Shulardan birinchisi tepa chap burchagiga arab alifbosida م. ی. harflari, o‘rtaga دیون طبیبی فارسی jummlari yozilgan.

Qo‘lyozma boshlangan 1 a-varaqda o‘rtacha muhr urilgan bo‘lib, unga “Ins. Vos. Ruk. AN UzSSR. №7118. g. Tashkent” so‘zlari yozilgan.

1 b varaqdan asosiy matn boshlanadi. Tepada, qizil siyohda kotib tomonidan: sarlavhasi yozilgan. Keyin بسم الله الرحمن الرحيم bilan devon boshlanadi. Birinchi g‘azal matla’si:

ای نازنین یک بوسهء این دم بکن احسان مرا

جانم رسیده بر لبم از محنت هجران مرا

Varaqlar kotib tomonidan hamda keyinchalik institut xodimi tomonidan ham raqamlangan. Kotib har bir sahifaning tepa, o‘rta qismiga qizil siyohda raqam qo‘yib ketgan. Institut xodimi esa, tepa, chap tomonga qalamda raqam qo‘ygan. Biz institut xodimi raqamlariga tayanib ko‘rsatishni ma’qul topdik, chunki u varaq hisobida, kotib esa sahifa hisobida raqamlab ketgan. Asosiy matn ramkalarga olingan. Dastlabki kichik ramka – zarhal, ikkinchi kattaroq ramka to‘q ko‘k rangda va umumiy matnni qoplab turgan ramka – qizil siyohda jadvalga olingan. 2a-varaqdan boshqa o‘rinda hoshiyada g‘azal keltirilmagan. Har bir radifli g‘azal boshida: رذیف الباء، رذیف الشین kabi sarlavhalar qizil siyohda yozilgan, biroq g‘azallar raqamlanmagan. Jami g‘azallar 69 b varaqqacha (qizil siyohda -68b) davom etgan. Keyin 70 a-varaqda bitta mustazod keltirilgan. 70 b-varaqdan

“Muxammasot” sarlavhasi bilan birinchi muxammas boshlangan. Dastlabki muxammas “Muxammasi Tabibiy forsiy bo g‘azali Qudsiy r.a.” deb boshlanadi. Muxammaslar hoshiyalarda ham berilgan. Asosiy matndagi muxammaslar “Muxammasi do‘vvum Tabibiy bar g‘azali Hazrat Mavlaviy Jomiy r.a.” singari qizil siyohda sarlavhalangan bo‘lsa, hoshiyalardagilar “42 Muxammasi Tabibiy” tarzida raqamlangan. Ba’zi muxammaslar “Qirqlanji Muxammasi Tabibiy bar g‘azali Suhayliy r.a.” kabi turkiyda sarlavhalangan. Asosiy matndagi oxirgi muxammas “Muxammasi siyu sevvum Tabibiy bar g‘azali Mavlaviy Fig‘oniy miguyad r.a.” deb sarlavhalangan. Vaholanki, undan oldingi muxammas “Qirq ikkilanji muxammasi Tabibiy bar g‘azali Mavlaviy Fig‘oniy ayzan a.r.” tarzida keltirilgan. Bu o‘rinda kotib “chehilu sevvum” “siyu sevvum” bilan almashtirib yuborgan bo‘lishi mumkin. Hoshiyadagi muxammaslar esa “42 muxammasi Tabibiy bar g‘azali Maxfiy” bilan tugagan.

Muxammaslar 97 a-varaqda tugagan.

95 b-varaq hoshiyasida “Qasidai Tabibiy dar madhi doma davlatahu”. muxammaslardan so‘ng “Tarji‘bandi Tabibiy ba tariqi tazmin” – 1 ta (97a-97b-varaqlarda). 98a varaqdan “Ruboiyyoti Tabibiy” boshalanadi. 97 b-varaq hoshiyasida yana bitta “Qasida dar madhi doma davlatahu” keltirilgan. Demak, qasidalar jami 2 ta. Ruboiylar ham raqamlanmagan. Ular 99 b-varaqda tugagan. Oxirida xattot kalofoni keltirilgan. Kolofon tagida chap tomonda 1a-varaqdagi kabi muhr bosilgan. Kitob institut xodimi tomonidan varaq tepa qismiga qalamda 99-bet deb yozib qo‘yilgan. Kitob hajmi oldingi devonlarnikiga qaraganda kichik. Qog‘ozi rus fabrika qog‘ozi. Jildi qalin kartondan. Bizningcha sahhof tomonidan ishlanmagan, shuning uchun ustidagi sahhafona naqshlar ham oddiy, buning ustiga sahhof ismi ham ko‘rsatilmagan. Institut katologi (fihrestida) shunday yozilgan: **“Munis ul-ushshoq”**. 99 varaq, fors-tojik tilida. № 7118 raqamli qo‘lyozma. 1326 hijriy yili Xo‘janiyoz bin Eshbobo tomonidan ko‘chirilgan.

2. №7083 raqamli qo‘lyozma tavsifi

“Tuhfat us-sulton”. Kotibi noma'lum. Oxirida xotima va kolofon yo'q. Kotib muallifning o'zi ham bo'lishi mumkin.

Ushbu qo'lyozmaning boshida 3 ta bo'sh varaq bo'lib, ulardan birinchisining chap burchagida "م" harfi yozilgan. Keyin teparoq qismi o'rtasida دیوان طیبی فارسی deb yozilgan. Mazkur qog'ozlarning uchinchisida to'rtburchak kichkina muhr bosilgan bo'lib, uning ichiga “Инст-т Восточных рукописей 7083 АН Узбекистан г. Ташкент” degan rus tilidagi yozuvlar bor. Ayni o'sha uchinchi qog'ozning orqa tomonidan, ya'ni b sahifasining tepasiga qora siyohda 1 raqami qo'yilgan bo'lib, devonning asosiy sahifalari shu yerdan boshlanadi. Dastlab qizil siyohda مسما بتحفت السلطان (Tuhfat us-sulton ismi bilan nomlangan) so'zlar undan keyin qora siyohda بسم الله الرحمن الرحيم bilan g'azallar boshlangan. Birinchi g'azal matla'si:

اي يافته از صنع تو، يكسر بنا ارض و سما
اي از كاف و نون، ايجاد كلّ ماسواه آورد

(Ey yofta az sun'i tu yaksar bino arzu samo,

Ovardai az kofu nun iyjodi kulli mosuvo...)

Ushbu g'azal Ollohga hamd mazmunidagi g'azaldir. Demak, ushbu devon an'anaviy uslub bilan boshlangan. Qo'lyozmaning asosiy matnidan tashqari hoshiyasiga ham she'rlar bitilgan. Jumladan, ushbu varaqning hoshiyasidagi birinchisi na't mazmunidagi quyidagi matla'li g'azaldir:

ي تو نزد خدا از همه اعلا اي رتبه
يك صندل اودناي تو شد عرش معلا

(Ey rutbai tu nazdi Xudo az hama a'lo,

Yak sandali avadnoi tu sho'd arshi muallo.)

Qo'lyozmadagi she'rlar 209 varaqqa yozilgan. Undan keyin ham qo'shimcha yana 25 ta hech narsa yozilmagan qog'ozlar mavjud. Qog'ozlar Rusiyadan keltirilgan oliy sifatli fabrika qog'ozlari bo'lib, undagi cho'rtan baliq hamda turli naqshlar va “original” deb yozilgan so'zlar shundan dalolat beradi.

197a sahifada xuddi she'rlar tugaganidek, ochiq joy qo'yilgan, biroq hoshiyalarda muxammaslar yozilgan. Shuningdek ayni sahifaning pastida boshidagidek kichik to'rtburchak muhr hamda mazkur 7083 raqami hamda rus tilidagi yozuvlar bor. Ya'ni yuqoridagi muhr ushbu varaqqa ham qo'yilgan. Shunga ko'ra bu yerda kolofon bo'lishi, yoki kitob xotimasi bo'lishi mumkin deb o'yladik, biroq she'rlar yana davom etgan.

Ustiga raqam qo'yilgan g'azallar 125a (g'azallar yozilgan qora siyohda yana ikkita raqam – 125 chetda, chap tomonda va 248 o'rtada qo'yilgan) tugagan bo'lib, oxirgi g'azalga “397 g'azali Tabibiy” deb yozilgan bo'lib, “kay” radifli g'azaldir. Biroq shuni aytish lozimki, asl matndagi g'azallar raqamlangani holda hoshiyadagilar raqam qo'yilmasdan, faqat qizil siyohda “g'azali Tabibiy” deb yozib ketilgan. Shuni hisobga olganda jami g'azallarni bu son bilan chiqarib bo'lmaydi. Bundan tashqari 198a varaqda (qit'alardan keyin) yana “g'azali Tabibiy” sarlavhasi bilan “be” radifli g'azallar keltirilgan. Ular 204b varaqda tugagan va keyin 205a varaqdan “nun” radifli g'azallar boshlangan. Ular 206b sahifagacha davom etgan. 207a sahifada “Musaddasi Tabibiy ba tariqi tazmin” boshlangan. 208a varaqdagi “Mustazodi Tabibiy” 209 a varaqqacha davom etib, kitobni tugallagan. Oxirida hech qanday xotima so'zi yoki kolofon yo'q.

Raqam qo'yilgan she'rlar sirasiga qit'alar (43 ta qit'a), ruboiylar (122 ta ruboiy) kiradi. Boshqa she'rlarga, jumladan muxammaslar (678 raqamli qo'lyozmada muxammaslar raqamlangan edi), mustazod, musaddaslarga raqam qo'yilmagan.

136b sahifadagi “Assalom ey nuri chashmi xojai har du saro” deb boshlanuvchi qasida Ibrohim Xudoyor kitobida aytib o'tganidek, Imom Muso Rizo sharafiga bag'ishlangan ekan.

Demak: (keyingi qo'shilgan ma'lumotlar, takrorlari bilan – M.J.)

1. G'azallar: 397 ta; raqamlanmagan hoshiyadagilarni qo'shganda 500 g'azalga yetadi. Agar baytlar sonini aniqlaydigan bo'lsak (Tabibiy g'azallarining

aksariyati 11 bayt – 22 misralik), 4367 bayt hosil bo‘ladi. Agar hamma g‘azallarni 544 ta deb olinsa, har bir g‘azalni 11 baytdan deb hisoblanilsa, unda bu shoirning bitta devondagi adabiy merosi 6000 baytga, taxminan 12 ming misraga yetadi. Demak, Tabibiy mahsuldor shoir.

2. Mustazod; 4 ta (2 tasi o‘rtada, 2 tasi oxirda)

3. Muxammas

4. Musaddas

5. Musamman

6. Soqiynoma: 8 ta

7. Ruboiyyot: 122 ta

8. Muqatta’ot: 43 ta.

155 b- 156 a varaqlarda “Musaddas ba tariqi tazmin” (sarlavhalar qizilda) keltirilgan bo‘lib, keyin misralar ustiga xato belgisini anglatuvchi qizil chiziq tortilgan. Sarlavhaning pastrog‘iga esa “mukarrar” (takrorlangan) degan so‘z yozilgan. Bu holat ushbu qo‘lyozmani avtograf nusxa ekanligiga ham bir ishora. Chunki, yuqorida aytganimizdek, ushbu qo‘lyozmaning hech qaeridan xattot haqida ma’lumot yoki keltirilgan kolofonlar ko‘rinmadi. Shuni hisobga olib hamda oxirida yana g‘azallarning qo‘shilganini, shuningdek o‘rtadagi 2 ta mustazoddan tashqari oxirida yana ikkita mustazod qo‘shish kabilarni (ya’ni qolib ketgan g‘azallarni yoki mustazodlarni yana ilova qilish yoki yana qo‘shimcha qo‘shish ma’nosida) hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu taxmin yanada aniqroq ekanini aytish mumkin. Xullas, 7083 ushbu qo‘lyozmani shoirning o‘zi tomonidan ko‘chirilgan nusxa deb olish mumkin.

198 a varaqdan yana “g‘azali Tabibiy” sarlavhalari bilan “be” radifli g‘azallar boshlangan. 205 a varaqdan esa “nun” radifli g‘azallar keltirilgan. 207 a

varaqda “Musaddasi Tabibiy ba tariqi tazmin”, 208a varaqda “Mustazodi Tabibiy”, 208 b da yana bir “Mustazodi Tabibiy” 209 a varaqda tugagan va shu bilan kitobning yozilgan varaqlari oxirlagan. Biroq kitobda yana qo‘shimcha 25 ta hech narsa yozilmagan qog‘oz mavjud.

O‘ZRFASHI № 58 RAQAMLI TOSHBOSMA TAVSIFI

Toshbosma qalin muqovali, hajmi ham katta. Ustida sahhof naqshlari bor. lekin sahhof yozilmagan. 1a varaqda quyidagilar yozilgan: o‘rtada دیوان طبیبی – فارسی – Devoni Tabibiyi forsiy. Keyin kichik muhr urilgan. Unda lotin haflarida “OzDXK 35g 3522 GPB. Uz” so‘zlari yozilgan hamda 3522 raqami ustiga xato belgisi sifatida chiziq tortilgan. So‘ngra o‘rtaroqda qiyalab katta muhr urilgan va unda quyidagilar yozilgan: “Узбекский Государственный Научно-Исследоват. Институт. БИБЛИОТЕКА. Отд __ شه _ Инв.№2360 гор.Самарканд”. Shundan so‘ng pastda quyidagi izohlar keltirilgan: دیوان طبیبی مع مخمسات

طیبی (احمد بن حاجی علی محمد)

خیوه. ناشری: محمد رحیم خان مطبع خورزمشاهیان

Devoni Tabibiy ma’ muxammasot. Tabibiy (Ahmad bin Hoji Ali Muhammad). Xiva. Matba’i Xorazmshohiyon. 1909 – 665 bet. Nosirov.

Ushbu oxirgi qatorda “Nosirov” familiyasi keltirilgan bo‘lib, bu sharqshunos Abdulla Nosirovdir. Demak, kitobni shu kishi tavsiflab chiqqan. Unga ko‘ra kitob milodiy 1909-yilda Muhammad Rahimxon tashabbusi bilan toshbosma holda chop etilgan ekan. Kitob 665 betdan iborat ekan. (Shu o‘rinda Abdulla Nosirovning kitobini topish va o‘qish maqsadga muvofiq deb bilindi – M.J.).

Asosiy matn 1b varaqdan boshlangan. Odatdagidek ark uslubida bezatilgan naqshinkor gulli boshlanma varaq o‘rtasidan “Bismilloh” bilan debocha boshlangan: “Hamdi bepoyon va sitoyishi behaddu son On qoyili suxan

ofarinro sazost va On nozimi zamonu zamin va makonu makinro ravost, ke devoni vujudi insonro bo anvoyi badoye' va sanoye' soxt va sahni dili ishonro baasnofi zevari ulum va ma'rifat bafardoxst. Nazm:

Xudoye ke xalloqi arzu samo....

Debocha 5b varaqqacha davom etgan. Matn jadvalga olingan bo'lib, she'rlarga alohida ikki ustunli jadval chizilgan. Toshbosma bo'lgani uchunmi, siyohi qo'lyozma yozuviga qaraganda xiraroq.

6a varaqda toshbosmalarga bosiladigan va o'rtasiga asar nomi yoziladigan gulli naqsh bosilgan bo'lib, o'rtada دیدان طبیبی “Devoni Tabibiy” deb yozilgan. Biroq, qaysi nomdagi devoni ekani ko'rsatilmagan. Shuning uchun uni tavsiflagan xodim (Abdulla Nosirov bo'lsa kerak-M.J.) naqsh jadvali ustiga “Mazhar ul-ishtiyoq” deb ruchkada yozib qo'ygan. Pastda chap tomonda yana katta muhr (1-varaqdagi kabi) bosilgan bo'lib, bu safar uning 2360 raqami ustiga chizilmagan. G'azallar 6b-varaqdan chiroyli naqshinkor boshlanma bilan boshlangan. Bismillohdan keyingi birinchi g'azal matla'si:

ای یافته از صنع تو یکسر بنا عرض سما

آورده از کاف نون ایجاد کلّ ماسوا

Ma'lumki, ushbu g'azal 7083, 928 inventar raqamda keltirilgan forsiy devonlarda ham kelgan bo'lib, agar 7083 ga suyaniladigan bo'lsa, unda bu devon “Tuhfat us-sulton” devoni hisoblanadi (928-devon nomi hali aniqlanmadi – M.J.).

4-g'azaldan boshlab g'azallar arab raqamida (...4·5) raqamlanib ketilgan. G'azallar 147a varaqda tugagan. Jami 544 ta g'azal. Oxirgi g'azal “Xush omadi” radifi bilan tugallanuvchi g'azaldir (928-raqamli devonda ham shunday tugagan, g'azallar soni ham bir xil, ya'ni 544 ta – M.J.).

G'azallardan keyin mustazodlar boshlangan. Jami beshta mustazod. Ular tugagan varaq oxirida “tammam sho'd” deya bo'lim tugagan. Shundan so'ng

alohida varaqdan (150a) “muxammasot” boshlangan. Ayni shu varaq o‘rtasiga 1-varaqdagi kabi kichik muhr bosilgan (ichida 35g.3522 raqamlari bor), lekin muhrning ustiga xato belgisi sifatida “X” chizilgan.

Muxammaslar ham xuddi alohida kitob singari gulli boshlanma bilan hamda مخمسات طبيی فارسی “Muxammasoti Tabibiyi forsiy” jumalari bilan boshlangan. Ular ham raqamlangan bo‘lib, 215b-varaqda tugagan. Jami 125 ta muxammas. Oxirgi muxammas “Ravshan g‘azaliga” bog‘langan bo‘lib, 928-devonda ham shunday edi.

Muxammaslardan keyin ayni shu varaqdan (215b) “Musaddasi Tabibiy ba tariqi tazmin” boshlanadi. Musaddaslar ham raqamlangan. Jami 7 ta musaddas. 222 a-varaqdan “Musammani Tabibiy” sarlavhasi bilan musamman (sakkizlik)lar boshlanadi. Jami 6 ta musamman. 228 a-varaqdan “Tarji’oti Tabibiy” sarlavhasi bilan tarji’bandlar boshlanadi. Ular ham raqamlangan bo‘lib, jami 6 ta tarji’band. 239b-varaqdan “Birlanji soqiynomai Tabibiy” boshlanib, 241 b-varaqda tugagan. Jami 8 ta soqiynoma. 252b-varaqqacha davom etgan. So‘ngra ana shu varaqdan “Birlanji qasidai Tabibiy” boshlanadi. Jami 5 ta qasida. 262a-varaqdan “Ruboiyyoti Tabibiy” boshlanadi. Barchasi raqamlangan.

Shu o‘rinda ruboiylar keltirilgan varaqlarda chalkashliklar borligini aytib ketish maqsadga muvofiq. Ya’ni, 264a-varaqdagi 27 raqamidan keyin 264b-varaqdan birdaniga 82–ruboiy boshlanib ketadi. Ushbu o‘rinda toshbosmada mazkur varaqlar almashib ketgan. Natijada 82- 95- ruboiylar o‘rtaga, ya’ni 264b-265a varaqlarga tushib qolgan. 265 b varaqdan esa 41- ruboiy boshlanib ketgan. Ular 268 a sahifadagi 81-ruboiygacha kelib, keyin 268b varaqdan 27 ruboiyning matni berilgan. Natijada 27dan 41 ruboiygacha (27-40) 269a varaq oxirigacha davom etgan. 269 b varaqdan yana 96-ruboiy boshlanib, ruboiylar qatori izga tushib ketgan. Demak, bundan ma’lum bo‘ladiki, ruboiylar yozilgan ushbu varaqlarda bosmaxona aybi bilan varaqlar almashib ketilgan. Ruboiylar jami 123 ta bo‘lib, 271b varaqda tugagan.

271^b varaqdan “Muqatta’oti Tabibiy” sarlavhasi bilan shoir qit’alari boshlangan. Jami 42 ta qit’a. Shu bilan 275b varaqda kitobning birinchi qismidagi ushbu devon tugagan.

276^b varaqda jadvalga olingan gulli naqsh va uning o’rtasida دیوان طبیی (Devoni Tabibiy) deb yozilgan. Naqsh pastida lolagullar surati, tepada esa institutning kichik muhri urilgan. Unda uch qator qilib: “Oz DXK 55 g. №3522. GPB. Uz” yozilgan. Jadval tepasiga esa siyohli ruchkada ushbu kitobni ko’zdan kechirgan xodim (Abdulla Nosirov bo’lishi kerak, chunki kitobning birinchi varag’ida yozib o’tilgan) tomonidan مرآت العشق (Mir’ot ul-ishq) deb yozilgan.

278^b varaqdan gulli boshlanma. Basmaladan keyin jadval ichiga دیوان طبیی پرسی (Devoni Tabibiyi Porsi) deb yozilgan. So’ngra ikki ustunda g’azallar boshlangan. Dastlabki g’azal matla’si:

ای نازنین یک بوسهء ایندم بکن احسان مرا

جانم رسیده بر لبم از محنت هجران مرا

Barcha g’azallar sarlavhalangan: 2 غزل طبیی kabi. G’azallar 333^b varaqda tugagan, jami 336 ta g’azal. Ayni shu varaqdan (333^b) “Mustazodi Tabibiy” boshlangan. Jami 1 ta mustazod. 334 a varaqdan 1 مخمسات طبیی پرسی “Muxammasoti Tabibiy porsiy” sarlavhasi bilan muxammaslar boshlangan. Jami 86 ta muxammas bo’lib, barchasi raqamlangan, biroq sarlavhalarida kimning g’azaliga taxmisligi, ya’ni muallifi yozilmagan. Muxammaslar 374^b varaqda tugagan. Ayni shu varaqdan “Ruboiyyoti Tabibiy” boshlangan. Jami 16 ta ruboiy. Ruboiylar ham raqamlangan bo’lib, ular ikki ustun orasidagi jadvalga kichik qilib yozilgan (e’tibor bilan qaralmasa ularni ilg’ash ham qiyinroq-M.J.).

375^b varaqda “Tarji’bandi Tabibiy” sarlavhasi bilan 1 ta tarji’band keltirilgan. 376^b varaqda “Qasidai Tabibiy dar madhi doma davlatahu” boshlangan. 377^b varaqdan 2 لانی قصیده در مدح دام دولته و شوکته (Shavkati va davlati davom qilgur (xonning) madhida 2-lanji qasida) boshlanib 379 a varaqda tugagan

va shu qasida ushbu kitobni yakunlagan. Oxirida kolofon keltirilgan bo‘lib, unda: “Zilli subhon, xalifatur-rahmon, boisi amnul-omon, a’niy Hazrat Sayyid Muhammad Bahodurxon soniy, doma davlatahu va shavkatahuning vojib ul-iz’onlari bila tarix ming uch yuz dag‘i yigirma yettilanji yili mohi zul-hijja yigirma to‘rtlanjisida, chahorshanba kuni erdikim, ushbu devoni Tabibiyi Mullo Ibrohim bin Domullo Qalandar hoji marhumiy yozib, itmomi sarhaddig‘a yetkurdi. Vallohu a’lam. 1327 و الله اعلم 1327”.

Bu ko‘rsatilgan hijriy qamariy yil hisobi milodiyga ko‘chirilganda 1910 yilning 5-yanvariga to‘g‘ri keladi. Agar Tabibiyning 1911-yilda vafot etganini hisobga olsak, bu toshbosma hali Tabibiy hayotligi paytidayoq chop etilgan. Biroq yuqorida ko‘rganimizdek, har ikkala devonga ham nom qo‘yilmagan, faqat forsiy devon ekanligi yozib ketilgan, xolos.

Kolofon pastida institutning katta muhri urilgan bo‘lib, unga: «G.P.B. Uz.Otd.V.ruk. № 58. Oz.DKX. Qol. Bol.» deb yozilgan.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Agar ushbu kitob toshbosmada chop etilgan bo‘lsa, unda nega uning matba‘sinin nomi ko‘rsatilmay, balki xuddi qo‘lyozma kabi oxirida kolofonda kim tomonidan yozib tugatilgani yozilgan?

Kitob muqovasi qalin: qizil charm ustiga qalin muqova ishlangan, sahhoflar uchun mo‘ljallangan o‘yma naqshlar bor, biroq ularda ism keltirilmagan. Muqova laba’ (ikki tomon birlashgan joyda)da pastdagi kichik qog‘ozga 58 raqami, o‘rtadagi uzun qog‘ozga esa “Devoni Tabibiy ma’a muxammasot I, II, III” deb yozilgan. Bu ushbu kitobning uchta qismdan iborat ekanligini bildiradi. Aslida esa 2-qismdagi “Muxammasot” birinchi devonga tegishli bo‘lib, Tabibiyning ushbu bo‘limdagi forsiy muxammaslari ko‘p bo‘lgani uchun kotib uni ajratgan holda keltirgan. Zero, ushbu muxammaslar 7083 raqamli qo‘lyozmada devon tarkibiga kiritilgan holda, ba’zilari hoshiyalarda keltirilgan. Bu holatdan yana bir narsani aniqlash mumkinki, Tabibiyning birinchi forsiy devoni hajm jihatdan katta ekan. Ma’lumki, ushbu kitobdagi birinchi devon 7083

qo'lyozmadagi devonga mos bo'lib, u yerda bu "Tuhfat us-sulton", deb keltirilgan. Ikkinchisi esa, 7118, 3462 raqamli qo'lyozmalarda keltirilgan va "Munis ul-ushshoq" deb sarlavhalangan devon bilan bir xil. Shunga asoslaniladigan bo'lsa, ushbu toshbosmadagi birinchi devon, institut xodimi (Abdulla Nosirov) yozganidek, "Mazhar ul-ishtiyoq" emas, balki, "Tuhfat us-sulton", ikkinchisi esa "Mir'ot ul-ishq" emas, balki "Munis ul-ushshoq"dir. Biroq, bu xulosalarni ham aniqlashtirish lozimki, ba'zi bir turkiy devonlarda "Munis ul-ushshoq" turkiy devon sifatida eslab o'tilgan.

2) Devoni Tabibiy. Forsiy. Eng chiroyli nusxa. № 928. 346 varaq. 1327-hijriyda Matyoqub devon (Xarrot) ko'chirgan. № 928 raqamli (chiroyli husnixat nusxa, chiroyli nasta'liqda yozilgan) qo'lyozma. Feruzxon buyrug'i bilan Muhammad Ya'qub devon kitobat qilgan. Tillorang, lavhali. Tillodan jadvalga olingan. 346 varaq. 1327 hijriy yilda ko'chirilgan. Devon tarkibida:

1. G'azallar – 544 ta: 1-190 a varaqalar.
2. Mustazod 5 ta: 190 b – 193 b.
3. Muxammas 1250 ta: 195 b – 280 a.
4. Musaddas 7 ta: 280 a – 287 b.
5. Musamman 6 ta: 287 b – 294 b.
6. Tarje'band 6 ta: 294b – 308a.
7. Soqiynoma 8 ta: 308a – 321a.
8. Qasida 5 ta: 321a – 331b .
9. Ruboiy 123 ta: 331b – 341a .
10. Qit'a 43 ta: 341a – 346a.

Muqova qora charmdan: amali Muhammad Rahim Sahhof

(Izoh: bu forsiy devoni "Munis ul-ushshoq" bo'lsa kerak).

3) Devoni forsiy. 111 varaq. № 3462 raqamli qo'lyozma. Bobojon Devon tarroh tomonidan ko'chirilgan.

4) **Mir’ot ul-ishq.** Fors-tojik tilida. 32 varaq, № 678/III. 1328 h. Odam bin Domullo Ortuq tomonidan ko‘chirilgan.

5) **Hayrat ul-oshiqin.** Turkiy. Bobojon tarroh. 1326 h. 243 varaq. № 3460/I.

O‘zRFASHI tomonidan nashr etilgan “Собрание восточных рукописей”da ham Ahmadjon Tabibiyning bir nechta asarlari tasnif qilingan. Jumladan, 5298 raqamli tasnifda shunday keltirilgan: **Hayrat ul-ushshoq (4). №3460/I. Muallif:** Tabibiy taxallusli Ahmad bin Hoji Ali Muhammad. XIX asr ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida yashagan xorazmlik shoir. Fors-tojik tilida ham xuddi o‘zbek tilidagi kabi she’rlar yozgan bo‘lib, o‘zidan katta adabiy meros qoldirgan. Tabibiyning o‘z ta’biricha, u tomonidan 5 ta devon – uchta o‘zbek tilida va ikkita fors-tojik tilida (“Munis ul-ushshoq” deb nomlangan devon debochasiga qarang. 5299 tartib raqami ostida tasnif qilindi). Tabibiy o‘zining har bir devoniga alohida nom bergan: 1. Tuhfat ul-ushshoq (aslida Tuhfat us-sulton-J.M.). 2. Munis ul-ushshoq. 3. Mir’otul ushshoq. 4. Hayrat ul-ushshoq. 5. Mazharul-ishtiyoq.

Ushbu she’riy to‘plam Tabibiy devonlarining eslab o‘tilgan beshtasidan biridir. U quyidagi janrdagi she’rlardan tarkib topgan:

1. g‘azallar – 1b – 138b.
2. Mustahzod – 138b-139b
3. Murabba’ – 140a-142b
4. Muxammaslar (79 ta O‘rta osiyolik shoirlar, asosan o‘z zamondoshlari g‘azallariga yozilgan) – 143a – 193a.
5. Musaddaslar – 193a – 200b.
6. Musammanlar – 200b – 205b.
7. Tarji’atlar – 205b – 207a.
8. Tarji’bandlar – 207 a- 213 b.
9. Masnaviylar – 213 b – 220 a.

10. Ruboiylar – 220 – 235 b.
11. Muqatta'ot – 235b – 244 a.
12. Bahri ta'vil – 244 a,b.
13. Bitta qasida – 244b – 245a.

Qo'lyozma rus fabrika qog'oziga chiroyli nasta'liq bilan yozilgan. Devonning boshlanishi (ko'rsatilgan debocha va bismillodan so'ng):

Sano bo'lsin angokim, bordurur ul qodiri yakto,

Qilur bir amr, ikki harf ila kavnu makon paydo.

Ko'pgina she'rlar varaq hoshiyalariga qiyalab yozilgan. Kotib ismi ko'rsatilmagan. Yozilgan yili, balki ushbu to'plamda keltirilgan Tabibiyning tarjima asaridan (fors tilidan o'zbek tiliga) “Yeti jom” asarining oxirida keltirilgan 1326/1908 yil bo'lsa kerak, (326 b- varaq). Jami devon 1b dan 245 a betgacha. Hajmi 17,5X 27,5. (SVR, 7, № 4610 (g'azaliyot), 4611 (Muxammasot). Xiva. Toshbosma asarlar.)

Tasnifda kamchiliklar bor, ya'ni qo'lyozmani ko'chirgan xattot aniq, Bobojon Tarroh – Xodim bo'lib, u o'zining “Xorazm navozandalari” asarida ushbu qo'lyozmani ko'chirganini yozib o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Tabibiyning birinchi forsiy devoni “Tuhfat us sulton”, ikkinchi forsiy devoni esa “Munis ul ushshoq” deb nomlangan. Bu fikrni bir nechta xil holat bilan isbotlash mumkin: Birinchisi, forsiy devoni kelgan qo'lyozmalarda aynan “musammo ba Tuhfat us sulton Musammo ba Munis ul ushshoq” degan sarlavhalar kelgan. Ikkinchisi shuki, Tabibiyning ijtimoiy kelib chiqishi eroniy qullardan bo'lgani uning dastlabki asarini aynan o'z tilida yozganini izohlaydi. Tabibiyning dastlabki devonlarining nomi esa debochada “Tuhfat us sulton” va “Munis ul ushshoq” deb beriladi. Yana shuni aytish lozimki, shoirning forsiy devonlaridagi baytlar hajmi va mazmuni uning turkiy devonlaridagi baytlar hajmi va mazmunidan yuqoridir.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. O‘zRFASHI fondi. № 7083 raqamli qo‘lyozma.
2. O‘zRFASHI fondi. № 7118 raqamli qo‘lyozma.
3. O‘zRFASHI fondi. № 58 raqamli toshbosma.
4. Bobojon Tarroh – Xodim. Xorazm shoir va navozandalari. / Nashrga tayyorlovchi A.Otamurodova, A.Abdurahimov. – T.: Tafakkur qanoyti, 2011. -192-b.
5. Otamurodova, Anbara. Sitamgar garduni dun: g‘azallar , tadqiqot va maqolalar. – T.: Tafakkur qanoyti, 2013. -160-b.
6. Erkinov A.S., Polvonov N.T., Aminov H. A. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi. – T.: Yangi asr avlodi. 2010.
7. Umid Bekmuhammad. Xorazm tarixidan sahifalar. – T.: Yangi asr avlodi. 2009.
8. Otamurodova, Anbara. Maoniy arsasi: tadqiqot va maqolalar. esselar, suhbatlar. – T.: Tafakkur qanoyti, 2013. -196-b.
9. Ibrohim Xudoyor. G‘aribahoyi oshno (monografiya). Tehron: muassasai mutolaoti farhangi. 2005.

FILOLOGIYA

AYOL RUHIYATI TALQINIDA HIJRON VA AYRILIQ MOTIVLARINING AKS ETISHI



**Muyiba
OTAMURATOVA,
Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa
doktori**

UO'K 512.71

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida ayol ruhiyati ifodasini yoritishda hijron va ayriliq motivlarining qo'llanilishi taniqli shoira Zebo Mirzo ijodi misolida talqin qilinadi.

Аннотация: В данной статье на примере творчества известной поэтессы Зебо Мирзы интерпретируется использование мотивов эмиграции и разлуки в современной узбекской поэзии для освещения выражения женской психики.

Annotation: In this article, the use of motives of emigration and separation in modern Uzbek poetry to illuminate the expression of the female psyche is interpreted on the example of the work of the famous poetess Zebo Mirza.

Kalit so'zlar: She'riyat, motiv, talqin, ruhiyat, ijod, mahorat.

Ключевые слова: Поэзия, мотив, интерпретация, дух, творчество, мастерство.

Key words: Poetry, motive, interpretation, spirit, creativity, skill.

Bugungi davr o'zbek she'riyatida milliy ruh ifodasi va shu bilan birgalikda jahon adabiyotiga xos ayrim xususiyatlar teran namoyon bo'lmoqda. Badiiy ijodda asosiy diqqat qaratilgan mavzu bu inson kechmishlari, shaxs psixologiyasi masalasidir. Har bir ijodkor ushbu jarayonni o'z nigohi bilan ko'radi va o'z iste'dodi va dunyoqarashiga binoan aks ettiradi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida inson kechinmalari talqini haqida so'z ketar ekan, bu borada bevosita davrimiz nazmining yetakchi mavzularidan biri bo'lgan ayol ruhiyati masalasining badiiy ijodda faol ifodalanayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Bugungi odamning ko'ngli bugunning tuyg'ularini tuyadi. Bugungi kishilarning ruhini bezovta qiladigan gaplar bugun aytilgani ma'qul. Binobarin, bugungi she'riyat – bugungi odamning ko'ngil mavjlari. Bugungi odam esa kechagisidan tamomila farq qiladi. Yaqindagina odamlarda umumiylik jihatlari ko'p edi. Endilikda har bir odam tilsimlangan qo'rg'on singari alohida va sirli. Shuning uchun ham hozirgi ijodkorlar hayot hodisalarini aks ettirishdan ko'ra, inson ko'nglini badiiy tadqiq etishga ko'proq urinmoqdalar. Chunki shaxsiyatning tilsimlangan qo'rg'onlari kaliti faqat ko'ngilda ekanligi anglab



yetildi”. [3: 75]. Ta’kidlangani kabi, globallashuv davri she’riyatida asosiy e’tibor inson qalbini inkishof etishga qaratildi.

Ma’lumki, inson ruhiyati keng qamrovli tushuncha. Zamonaviy she’riyatda shaxs ichki kechinmalari aks ettirilgan asarlar xususida so’z borar ekan, bugunning dolzarb mavzularidan biri hisoblangan badiiy adabiyotda ayol ruhiyati ifodasini o’z ijod namunalarida yoritib berayotgan iste’dodli shoira Zebo Mirzo ijodi alohida tadqiq etishni talab qiladi. Ijodkor o’z badiiyat namunalarida ayol qalbiga teran nazar tashlaydi va uning iztiroblarini izchil yoritishga intiladi. Uning asarlarida ayol ruhiyati talqini ishqiy lirikada teranroq namoyon bo’ladi. Zebo Mirzo she’riyatini tahlil qilish ayol qalb kechinmalarining badiiy adabiyotdagi inikosini chuqur anglashga imkon yaratadi.

“O’z ijodida inson ko’nglining turfa ko’rinishlarini global mavzular darajasiga olib chiqqan shoiralardan biri Zebo Mirzodir. Uning she’rlarida ayol qalbi rangin va chuqur ma’no tashiydi. Shoira ijodiga nazar soladigan bo’lsak, uning ijodi bugungi o’zbek she’riyatining yorqin namunasidir. Shoira she’rlarida yetakchi mavzu ishq mavzusidir. Ishqni Yaratganning inoyati, deya qabul qilgan shoira Allohdan najot kutadi, gunohlaridan o’tishini so’raydi, panoh tilaydi”. [4: 73]. Shoira boshqa ijodkorlardan farqli ravishda she’rlarida ayol ruhiyatini talqin qilishda ishq tuyg’usi bilan uyg’un ravishda hijron va ayriliq motivlaridan keng foydalanadi.

“Isming – yuragimga urilgan xanjar,
Sug’urib olsalar o’laman.
Men seni shu qadar muhabbat
va azob bilan...
jim sevaman!” [5: 74].

Yuqoridagi misralarda ijodkor lirik qahramon siymosida o’z yoriga murojaat qilayotgan ma’shuqa tilidan so’zlaydi. U yorning ismini o’z yuragiga sanchilgan xanjarga qiyoslar ekan, undan ayrilishni ana shu yurakka qadalgan xanjarning sug’urib olinishi tufayli yuzaga keladigan azobli o’limga qiyoslaydi. Lirik qahramon uchun bu muhabbat azob bilan yonma-yon ekanligini ifodalaydi. She’rdagi keskin tasvir shoira – lirik qahramon – ayol ruhiyatining nechog’lik murakkab ekanligini ayon etadi. “She’riyat, eng avvalo, ruhiyat ko’zgusi o’laroq, inson ongi va qalbida chuqur taassurotlar hosil qiladi. Shuning uchun haqiqiy shoirlar har qanday sharoitda ham qalb va ruhoniyyat tasvirlariga alohida ahamiyat beradi”. [2: 327]

“To’kilib qaraysan...

Nigohingda mung,

Yuraginga botib bormoqda, hayhot.

Sevgim,

Ko‘zingdagi shafqat ne uchun?

Baxtsiz bir ayolga

O‘xshayman nahot?” [6: 93].



Keltirilgan she’rda ijodkor o‘z qismatining, umuman, ayol qismatining nechog‘lik og‘ir ekanligini ko‘rsatib berishga intiladi. Chunki ayollar uchun muhabbat har doim ham quvonch keltiravermaydi. Ular, ma’lum ma’noda, hamisha boshqalarning o‘z ustidan to‘qiydigan g‘iybati-yu, beradigan qarori bilan hisoblashishga majbur. She’rdagi lirik qahramon ham xuddi shu holatni boshdan kechiradi. U o‘zi sevib ayrilayotgan insonning vido oldidan o‘ziga shafqat nazari bilan boqishini istamaydi. Chunki u oshiq va bu muhabbatni o‘zi uchun chinakam baxt deb biladi. Shu bois, hech ayriliq bu baxtga putur yetkazishi mumkinligiga ishonmaydi. Shoira ta’biri bilan aytganda, “Bir yorug‘ Ko‘ngildan yaralgan” ayol uchun bu hijron pisand emas. Zero, u eng oliy baxtga - oshiqlik baxtiga musharraf bo‘lgan.

“Sening sevging – menga jannatliy in’om,

Hatto azobing ham umrimga gulbayt.

Shu yorug‘ ishq bilan

Mukarram, shodkom,

Baxtsiz bir ayolga o‘xshaymanmi, ayt!” [6: 93].

Lirik qahramon ayriliq dastidan do‘zax azobini tortayotgan bo‘lsa-da, ishq qudrati unga kuch bag‘ishlaydi. Ko‘nglidagi bu ilohiy nur – yor sevgisini o‘zi uchun jannatiy tuhfa deb qabul qiladi. Bu yorug‘ ishq bilan o‘zini baxtiyor his qiladi. Yuragida qaynoq muhabbat o‘ti yonib turgan ayolning baxtsiz bo‘lishi mumkin emasligini bayon etadi.

Ayonki, ishq tasviri bilan hamohang ravishda hijron va ayriliq motivi o‘zbek va jahon she‘riyatida an‘anaviylik kasb etgan. Bu mavzular barcha zamonlarda shoiralar qalbining nozik torlarini chertib o‘tguvchi ilhom manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ayol ruhiyatini teran talqin qilishda ham ushbu motivlar muhim o‘rin tutmoqda. Bu holatga har bir ijodkor turlicha yo‘sinda yondashadi. Qaysidir ijodkorlarning asarlarida ayriliq o‘lim bilan barobar tasvirlansa, ba‘zi asarlarda bu jarayon qismatga isyondek akslantiriladi. Zebo Mirzo she‘riyatida esa ayriliq va hijron ishqqa soya solish kuchiga ega emasligi dalillanadi. Shoir o‘z uslubi orqali bu olamda hech qanday kuch ayol muhabbatiga tenglasha olmasligini yoritib beradi. Bu holat esa, o‘z o‘rnida ayol ruhiyatini tasvirlashda hijron va ayriliq motivlarini qo‘llashda shoiraning o‘ziga xos mahoratini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimjon Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2010. 364-b.
2. Jumaboyeva J. XX asr o‘zbek she‘riyatida psixologik tasvir mahorati. – Toshkent: “Fan”, 2004. 334-b.
3. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Ochiq so‘z. – Toshkent: “Tafakkur”, 2019. 688-b.
4. Sobirova Z. Globalashuv davri o‘zbek she‘riyatining asosiy xususiyatlari. // PhD. diss. – Toshkent, 2023. 131 b.
5. Zebo Mirzo. Nur kukunlari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2004. 87-b.
6. Zebo Mirzo. Ishq. – Toshkent: “Akademnashr”, 2011. 128-b.

FILOLOGIYA

BERUNIY SHAXSIYATI BEQIYOS, ILMIY-NAZARIY FIKRLARI ESA BEBAHODIR



**Anvar
ALLAMBERGENOV**




*O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi
Nashrlar bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Anvar Matniyazov bilan suhbat*

SAVOL. *Xabaringiz bor, 2021-yilda YUNESKO Ijroiya Kengashining 211-sessiyasida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) tavalludining 1050 yilligi YUNESKO shafeligida 2022-2023-yillarda keng nishonlash bo‘yicha qaror qabul qilindi. 2022-yil 25-avgust kuni “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Sizda Abu Rayhon Beruniy hazratlarining bir vorisi o‘laroq bu qarorlardan so‘ng qanday o‘y-fikrlar kechmoqda?*

JAVOB. *Ushbu qarorlar tarixiy ahamiyatga ega. YUNESKO sessiyasida O‘zbekiston davlati tashabbusini qo‘llab-quvvatlagan Turkiya va Eron vakillariga minnatdorchilik bildiramiz. Bu muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ezgu sa’y-harakatlarini xalqaro miqyosda yana bir karra tan olinishidir. Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans – kelajak taraqqiyotimizga poydevor yaratish yo‘lida ulug‘ bobokalonlarimiz merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish biz avlodlarning muqaddas burchidir.*

SAVOL. *Akademik Krachkovskiy ta’kidlaganidek, Beruniy qiziqqan sohalarni sanab chiqishdan ko‘ra qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroqdir. Bugungi axborot asrida bir tadqiqotchining, bir olimning Beruniy shug‘ullangan sohalarni to‘liq tadqiq qilib, o‘rganib chiqishi amri mahol.*

Aytingchi, Abu Rayhon Beruniy dahosi va ijodi sizni qaysi qirralari bilan qiziqtirgan? U bo'yicha qanday tadqiqot ishlari, kuzatishlar olib borgansiz?



JAVOB. Abu Rayhon Beruniy ijodining bir qirrasini alohida qayd qilsa arziydi. U biron-bir masalada fikrini hamisha teran ifodalaydi, barcha ma'lumotlarni keltirib, ularni birma-bir tahlil qiladi. Yechimga olib boradigan yo'lni bosqichma-bosqich bosib o'tadi. Muxoliflar fikrini kamsitmagan holda tahlil qiladi. Yakunda fikrlarini, albatta, falsafiy jihatdan isbotlab beradi. Fikrning tasdig'i yoki inkorida ham birdek haqqoniyat bilan ish ko'radi. Kezi kelsa, o'zini-o'zi tanqid qiladi, xatolarini ochiq tan oladi, yanglishgan bo'lsa, sababini ko'rsatib beradi. Hazrat Beruniyning insonparvarligi tahsinga loyiq. Tarixchilarning O'rta asr Sharq dunyosini ayovsiz va shafqatsiz urushlarga boy, odamlarini esa, yovvoyi va mutaassib deb tasvirlashlariga uncha qo'shilmayman. Boisi, Abu Rayhon Beruniydek gumanist olim va davlat arbobining hayot yo'li hamda ezgu ishlari bu tasvirlarni ancha xiralashtiradi. Bir tadqiqotchi sifatida Beruniy bobo asarlaridagi xorazmcha so'zlarga bag'ishlab ingliz tilida 2 ta, rus tilida 1 ta hamda o'zbek tilida 6 ta maqola e'lon qilganman. Shulardan biri Amerikada, yana biri Yevropada chop qilingan. Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" va "Kitob as-Saydana fit-tib" asarlari dissertatsiyamning tadqiq obyekti bo'lgan edi. Dissertatsion ishimda Abu Rayhon Beruniyning xorazm tili, alifbosi va yozuviga bo'lgan munosabatini, uning asarlaridagi xorazmcha nomlarni: xorazmshohlarning ismlari, astronomik, astrologik, kalendar nomlari, fitonim va turli moddalar nomlarini tadqiq qilganman.

SAVOL. *Ilm kishilarining ijodi hamisha ko‘pchilikni qiziqtirgan, e’tiborini tortgan. Shu ma’noda beruniyshunoslik ham alohida bir mavzu. Sizningcha, ilk beruniyshunoslik qachondan boshlangan? O‘rta Osiyo va jahon ilm-fanida dastlabki beruniyshunoslardan, shu kungacha bo‘lgan yirik beruniyshunoslardan kimlarni bilasiz?*

JAVOB. İlk beruniyshunoslik olimning hali hayotlik paytidayoq boshlangan. Talabalar uning arab tilida yozgan dastlabki kitoblarini o‘qishda qiynalishadi. Shunda mudarrislar Abu Rayhon Beruniydan yengilroq tilda, soddaroq qilib yozishini so‘rashganda, u “Men nima uchun o‘z maqomimdan pastga tushib, talaba darajasida yozishim kerak. Aksincha, bu kitobni o‘qiydigan odam shu darajaga chiqib, keyin o‘qisin”, deb javob beradi. Dastlabki, yirik beruniyshunos olimning ustози Ibn Iroq edi. Ibn Iroq shogirdiga bag‘ishlab risolalar ham yozgan. Umuman, odamlar “Beruniy qanday oilada tug‘ilgan?”, “Uning ota-onasi juda ilimli odamlar bo‘lganmikin?”, deb doimo qiziqib kelishgan. Hindlar huzurida xuddi shogirddek tavoze’ bilan odob saqlab turgan Beruniyning ilmiga tan berib, o‘zlarining tilida uni “Daryo” deb atashardi.

SAVOL. *Bugungi kun beruniyshunosligini qanday baholagan bo‘lardingiz?*

JAVOB. Nazarimda bugungi kun beruniyshunosligini aytarli va yetarli darajada baholab bo‘lmaydi. Bu borada hali ancha ishlar qilinishi lozim.

SAVOL. *Bu savolni ham oldingi savollarning mantiqiy davomi, desak bo‘ladi. Aytingchi, sizningcha, kelgusidagi beruniyshunoslik qanday bo‘lishi kerak, Beruniy ijodining qaysi qirralari tadqiqatlab deb hisoblaysiz? Ayni damda beruniyshunoslikdagi eng dolzarb masalalar nimalardan iborat?*

JAVOB. Beruniyshunoslik kelgusida qanday bo‘lishi kerakligini bilmayman. Fikrimcha, Abu Rayhon Beruniyning arifmetikasini maktab darsliklariga kiritish lozim. Kingadir erish tuyulishi mumkin, ammo so‘radingiz aytaman. Ayni damda beruniyshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri bu – uning tug‘ilib o‘sgan yurtida observatoriya ochish masalasidir.

SAVOL. *Ko‘plab alloma ajdodlarimiz qomusiy bilim sohibi bo‘lishgan. Lekin shunga qaramasdan ko‘pchilik ular shug‘ullangan sohalarning bittasida shuhrat qozonganligini biladi. Masalan, Muhammad Xorazmiy matematikada, Ibn Sino tibbiyotda, Mirzo Ulug‘bek falakiyotda peshqadam olim sifatida mashhur. Vaholanki, ularga qomusiy olim ta’rifi bekorga berilmagan. Shulardan kelib chiqqan holda Beruniy boboni qaysi fanning otasi deyishimiz mumkin? Yana ham aniqrog‘i, Beruniy bobo o‘zining bor imkoniyatlarini qaysi fanda ko‘rsata olgan?*

JAVOB. Beruniy Rayhon (a)ning otasi. Bunga hech kim shubha qilmaydi. Olim fanning hech qaysi bir sohasida o'zini to'liq namoyon qila olmagan. Bunga ulgurmagan, to'g'risi umri yetmagan. Shunga qaramasdan, biz bemalol e'tirof qilishimiz mumkinki, u avvalo faylasuf, keyin matematik, ana undan so'ng metafizik edi. Beruniyning sonlar nazariyasi, nisbatlar, kategoriya va massa haqidagi fikrlari dunyoda o'sha vaqtda mavjud bo'lgan barcha fanlarning rivojiga xizmat qilgan va endi yaratiladigan fan tarmoqlari taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Olimning fikrlari o'z davrida dunyoni anglash va koinotni tasavvur qilish imkonini bergan edi.

SAVOL. *Beruniyga o'z davridan tortib to hozirgacha ilm-fanda, jamiyatda va siyosatda nom qoldirgan ko'plab shaxslar har xil fikrlar bildirishgan (masalan, "Beruniy qiziqqan sohalardan ko'ra qiziqmagan sohalarni sanash osonroq" (I.Y.Krachkovskiy), "XI asrning birinchi yarmi Beruniy asridir" (G.Sarton)) Siz Abu Rayhon Beruniy dahosini qanday ta'riflagan bo'lardingiz?*

JAVOB. Nega XI asrning birinchi yarmini "Beruniy asri" deyishadi? Aslida, nafaqat XI asr, balki XXI asr ham Beruniy asridir. Chunki, olimlar va ularning ishlari zamon va makon chegaralarini tan olmaydi. Endi masalaga qaytaylik, nimaga aynan XI asrning birinchi yarmi deyilgan?! Bilasizmi? Unda eshiting, o'sha davrda Abu Rayhon Beruniydan boshqa yuzlab yetuk va qomusiy olimlar gultoji (pleyadasi) yetishib chiqqan ediki, ularning ichida peshqadami yoki tengsizi bo'lish baxti faqatgina hazrat Beruniyga nasib qilgan. Ta'rif oddiy – Beruniy shaxsiyati beqiyos, ilmiy-nazariy fikrlari esa bebahodir.

SAVOL. *Bobomiz kashf etgan ko'pgina ilmiy yangiliklar vaqt o'tishi bilan jahon ilm-fan tarixida boshqa olimlar nomi bilan tilga olinadigan bo'lgan. Qomusiy bilimlar sohibi hazrati Beruniy shug'ullangan sohalarning bir tarmog'i bilan faoliyat olib borib, tarixga o'zlarining nomlarini muhrlab ketganlar qancha (Nyuton, Eynshteyn, Plank, Rezerford, Geyzenberg, Shredinger, Bor, Pauli, Dirak - bular safini uzoq davom ettirish mumkin). Aslida yuqorida nomlari zikr qilingan olimlar kashfiyotlarining ilk bashoratchisi va mualliflaridan biri bizning bobomiz Abu Rayhon Beruniy ekanligini hazratning vorislari sifatida jahon afkor ommasiga qanday isbotlashimiz mumkin?*

JAVOB. Isbotlashga umuman hojat yo'q. Aksincha, ularning vorislari bu kashfiyotlarni o'zlariga tegishli ekanligini isbotlashsin, agar qo'llaridan kelsa. Ular Beruniydan o'rgangan, ilhom olgan. Asarlaridan foydalangan. Shu darajada hurmat qilishganki, hatto Beruniy bobomizni e'zozlab "al-Baron" deb atashgan.

SAVOL. *Beruniy boboning turli xil rakursdagi siymosini yaratish bo'yicha shoir, yozuvchi, rassom, haykaltarosh, rejissor va shu kabi ijod sohasi vakillarining ishlari haqida nimalar deyolasiz? Va shu o'rinda qaysi ijodkorlarning nomlarini alohida tilga olgan bo'lar edingiz?*

JAVOB. Bu borada Qurbon Muhammadrizoning Beruniy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan roman-trilogiyasini alohida tilga olib o‘tishni lozim deb hisoblayman. Yana Omon Matjonning dostoni ham badiiy yuksak saviyada yaratilgan. Qoraqalpoq yozuvchisi O‘.Bekbeulovning “Beruniy” romanining o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi ham o‘quvchida yaxshi taassurot qoldiradi.

SAVOL. *Abu Rayhon Beruniy nomini abadiylashtirish, uning bashariyat uchun qilib ketgan xizmatlarini munosib baholash, qomusiy allomaning shaxsi va ilmiy-ma’rifiy merosiga doir yana qanday targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaysiz?*



JAVOB. Bu borada mening bir taklifim bor. Ilm-fan sohasida xorij olimlari uchun Abu Rayhon Beruniy nomida bir xalqaro mukofot tashkil qilinsa va taqdirlash marosimi ikki yilda bir marotaba Xorazm Ma’mun akademiyasida tantanali tarzda o‘tkazilsa. Shu munosabat bilan an’anaviy tarzda davom etadigan Xalqaro konferensiya tashkillashtirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

SAVOL. *Bugungi kun yoshlariga Beruniy hayoti bilan bog‘liq qaysi voqealarni namuna sifatida ko‘rastish lozim, deb hisoblaysiz?*

JAVOB. Bugungi kun yoshlariga Abu Rayhon Beruniy hayoti bilan bog‘liq bir ibratli voqeani namuna sifatida keltirishni xohlayman. Beruniy umrining so‘nggi kunlarida og‘ir dardga chalinadi. Uni ko‘rish uchun borgan, narigi qasabada yashovchi Qoziga madori qolmagan Abu Rayhon meros ilmiga oid bir masalani oydinlashtirish uchun bir necha savol beradi. Qozi Beruniyga



“Bu masalalar hozir nimaga kerak, axir o‘zingiz bir ahvoldasiz-ku?”, deb murojaat qiladi. Beruniy, “To‘g‘ri, ahvolim og‘ir. Lekin menga necha kundan beri ushbu masalaning yechimi tinchlik bermaydi. Agar bu dunyodan nasibam uzilgan bo‘lsa, u dunyoga bu masalaning yechimini bilmay ketgandan ko‘ra, bilib ketganim afzal emasmi?!”, deydi. Qozi “Shu ahvolda-ya!” deb hayratlanadi. Bir umr ilm izlagan, bir qancha kashfiyotlar qilgan, endilikda majolsiz va keksayib qolgan Abu Rayhonga hamdardlik bilan tikilar ekan, Qozi uning xotirasi va zakovati hali ham kuchli ekanligiga tan beradi. Chunki, Abu Rayhon Beruniy so‘ragan masalani ancha yillar oldin ham muhokama qilishgandi. O‘sha bahsdagi chalkashlikni Abu Rayhon Beruniy Qoziga savol berib aniqlashtiradi va masalaga yechim topadi. Qozi Beruniy bilan xayrlashib, ko‘chaga chiqadi. Ko‘cha boshiga yetganida, Beruniyning uyidan ayollarning uvvos solgan yig‘isi eshitiladi. Qozi o‘z asrining yagonasi bo‘lgan alloma bu yorug‘ jahonni tark etganini anglaydi va qo‘llari titragancha yuziga fotiha tortadi. Ha, o‘tkinchi, omonat dunyoda insonning qilgan yaxshi amali, nomi, kitoblari qoladi. Shuning uchun men yoshlarga ushbu ibratli voqeadan o‘rnak olib, ilm o‘rganishlarini tavsiya qilaman.

SAVOL. *Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi borasida kelgusida qanday izlanishlar olib borishni rejalashtirgansiz?*


JAVOB. Abu Rayhon Beruniy asarlari tarkibida kelgan xorazm tiliga oid so‘zlarni jamlab, kitob shaklida izohlar bilan nashr qilishni rejalashtirganman. Yana bir gap, nazarimda Abu Rayhon Beruniy o‘z asarida qadimiy kabisasiz kalendarga oid muhim ma’lumotlarni keltirgan. Shu masalada ham bir necha yillardan beri izlanishlar olib boryapman. O‘zimga-o‘zim goh maqsadga yaqin kelgandek, goh uzoqlashib ketgandek tuyuladi...

SAVOL. *Mazmunli va qiziqarli suhbat uchun tashakkur! Qimmatli vaqtingizni ayamasdan savollarga batafsil javob berganingiz uchun sizga katta rahmat! Ezgu ishlaringizda yutuqlar tilab qolamiz. Salomat bo‘ling!*

JAVOB. Sizga ham rahmat. Omon bo‘ling!

FILOLOGIYA. ADABIY MEROS

QIRQINCHI AFSONA



**Bahodir Sodiqov
(1959-1980)**

“Xo‘sh, bu yog‘i o‘ttiz to‘qqizta-ku, qirqinchisi qanchi?!”, dersiz. Qirqinchisi sizga havola, muhtaram kitobxon. Hohlang o‘zingiz to‘qing, hohlang eshitgan yo o‘qiganlaringizdan birortasini qo‘shib qo‘ying. Axir hayotda kishining hech bo‘lmaganda birgina o‘z afsonasi bo‘lishi kerak!”

Omon Matjonning yangi kitobi-“Haqqush qichqirig‘i” ana shu jumlar bilan, har bir kitobxonga o‘z qirqinchi afsonasini qo‘shish huquqini berish bilan tugaydi. Tugaydi, dedig-u, aslida asosiy samarasi ana shu jur‘atli xotimadan boshlanadi. O‘ttiz to‘qqiz afsonaga o‘zining qirqinchi afsonasini qo‘shishi mutlaqo kutilayotgan kitobxonlar soni bilan hisoblashadigan bo‘lsak, “qirqinchi” soni torlik qilib qoladi. Kitobni ming o‘quvchi o‘qisa o‘ttiz to‘qqizu ming, o‘n ming kitobxon o‘qisa o‘ttiz to‘qqiz-u o‘n ming va hokazo miqdordagi afsonalar paydo bo‘ladi. Albatta, “paydo bo‘ladi” iborasini shartli qabul qilamiz. Afsonalar orasida o‘z tug‘ilishi uchun oldingi ikki akasini kutib yotgan uchinchi o‘g‘ildek o‘z to‘qqiz birodarini kutayotgani ham, qirqinchi afsonasi bo‘lmay qolmasligi uchungina o‘ylab topiladigani ham bo‘lishi mumkin. Ba‘zilar uchun shu o‘ttiz to‘qqiz afsonaning zamonaviy bir iste‘dodli shoir qalamiga mansubligini ko‘rishning o‘ziyoq bir afsonadir.

Yuqorida “zamonaviy bir iste‘dodli shoir” deyilishi bejiz emas. O‘quvchilarga zamonaviy she‘rlari bilan ardoqli bo‘lgan shoir nega afsonalarga qo‘l urib qoldi, degan fikr ko‘pchilikning ko‘nglidan o‘tishi turgan gap. Shoir buni oldindan bilgandek, so‘zboshi o‘rnida kelgan himoya-afsonasida yozadi: “Afsonalar xalqimizning bolaligidan bu kunigacha uchib kelgan va kelajak sari uchishga hozirlanayotgan

sirli ruhlar!.. Afsonalar eng uzoq umr ko‘radigan...“faxriy vatandoshlarimiz!..” “Faxriy vatandoshlar”ga murojaat qilish, birinchidan, savobli ish bo‘lsa, ikkinchidan “...XXasrga xos tezligimiz, sur‘atimiz oshgani sababli bizdan orqada qolib ketayotgan eski do‘stlarimiz-ezgulik, samimiyat, tabiiylikni birga olib ketish uchun bir zumlik qayrilish, xolos!”



Shoir o‘zining keyingi chiqishlaridan birida tarixiy mavzuda va xayolotiy asar yaratish o‘rtasida qandaydir o‘xshashliklar borligini aytib, ularni yaratishda mushkulliklar bilan birga o‘z afzalliklari ham bor, deydi. Xayolotiy asar yaratishning afzalligi shundaki, “muallif o‘z qarashlarini hech tortinmay ilgari suraverishi mumkin”.Ushbu afzallik kitobdagi barcha afsonalarda o‘z aksini topa bilgan.

O‘zini oqlash - himoya nutqi emas, g‘alaba bo‘lishi kerak. G‘alaba qay tarzda ta‘minlangan, buni quyida ko‘ramiz.


Kitobdan o‘rin olgan o‘ttiz to‘qqiz mustaqil asarni uch guruhga: afsona-rivoyat, afsona-lavha va tarixiy hikoyalarga ajratish mumkin. Afsona-rivoyat bularning qariyb yarmini tashkil etadi.

“Alla” afsona-rivoyati o‘zining falsafiy muqaddimasi va xuloasasiga ega. Alla go‘daklarga aytiladi, uni onalar aytadi. U bolani faqat uxlatish uchungina aytiladimi? Agar allani katta yoshdagi odam eshitib qolsa nima bo‘ladi? Allada biz bilmagan qanday kuch-u qanday mo‘jiza bor? Muqaddimadagi ana shu kabi savollarga javob tariqasida gurlanlik qiz Roziya rivoyati keltiriladi.

Onasining “bolalaringga alla aytma” degan vasiyatiga ko‘ra, allasiz ikki suyukli bolasidan ayrilgan Roziya uchinchi farzandini ham o‘lim to‘shagida ko‘radi. Erining zo‘ri bilan Roziya alla aytib, bolasini

o'limdan olib qoldi. Voajab, o'g'li endi allasiz uxlolmaydigan, Roziyaning o'zi ham alla aytmasdan o'tirolmaydigan bo'ldi. Alla uning bolasini uxlatib, o'zining bolaligini uyg'otgan edi. U dugonalari, ukalari, onasini eslab qoldi, eslab qoldigina emas, favqulodda sog'inib ketdi. Uning Xorazmda qolib ketgan o'tmishi alla tusida tirilib, uni dahshatli tashnalik bilan o'ziga chorlay boshladi.

Roziya onasining iltimosini endi o'zicha tushundi. Alla shunchaki



yaqinlarni esga solar ekan, deb o'yladi.

Rivoyatdan chiqariladigan falsafiy xulosada “Alla-bizga onalarimizga ham katta ona bo'lgan ona tuproqdan kelayotgan sado!”, deyiladi. Shuning uchun ham katta yoshdagi kishilar alla eshitganda yodlariga unutilay deb turgan xotiralar, o'chayozgan bolalik lavhalari sassiz tirilib keladi. Kitobdagi “G'amxo'rlik yoki ikki chinor”, “Muallaq to'rg'ay”, “Xum”, “Arslon va qafas”,

“Hotamtoyning ukasi” rivoyat va lavhalar ibratomuz ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, ramziy ma'noga egadirlar.

Bulardan, ayniqsa “Muallaq to'rg'ay” va “Hotamtoyning ukasi” rivoyatlari o'z ishorasiga ko'ra bir-biriga yaqindirlar. Birinchi rivoyat “yosh daho” to'rg'ayvachchaning osmonda shahar qurishga urinishi va bunga butun bir to'rg'aylar qavmini ishontirib, ularni bo'lmag'ur ish

bilan ovvora qilganini hikoya qiladi. Osmonda shahar qurishning natijasi nima bo'lishi hammaga ma'lum. Rivoyatdan shoir shunday xulosa chiqaradi:

“Bugun ham goh
Men ham daho bo'lay deb,
Ko'p to'rg'aylar muallaqdir-
Ko'kdan chorlar “suv, loy!” deb.

Hotamtoyning ukasi haqidagi rivoyatda hotamlikning shuhratiga uchib saxiylik qilmoqchi bo'lgan va donishmand chol birinchi sinovdayoq sharmandasini chiqargan ta'magir shuhratparast voqeasi keltiriladi. Rivoyatning xulosasi o'zida. Donishmand chol Hotamning shuhratparast ukasiga hotamtoylik shuhrat emas, zo'r hikmat ekanligini, uni tabiat ato qilishini aytadi. Hotamtoy go'dakligidayoq onasining bir ko'ksini emib, ikkinchisini ukasiga qo'yar ekan. Donishmand deydi:

Sen-chi, onang bir ko'ksini emizgani dam,
Changalingdan chiqazmasding unisini ham!

Muallaq to'rg'ay bilan hotamlik qilmoqchi bo'lgan xasisning umumiy sharmandaligi ularning qaysi yo'l bilan bo'lsin, shuhratga burkanish uchun urinishlaridadir. “Yosh daho” to'rg'ay bu shuhratga osmonda shahar qurishdek mislsiz ahmoqona “yangilik” bilan erishmoqchi bo'lsa, Hotamning ukasi esa bu yo'lda taqlid qilmoqchi bo'ladi. Har ikkala rivoyatning ramziy ma'nosi nihoyatda ravshanki, o'qib o'tirib zamonamizning muallaq to'rg'aylariyu Hotamtoy ukalari ko'z oldingizga keladi.

“G'amxo'rlik yoki ikki chinor” lavhasida ma'naviy-ahloqiy masalalar ko'tariladi. Lavhada birovga yordam berdim deb, umr bo'yi uni o'z soyasidan chiqarmaydigan, uning doimiy minnatdorchiligi-yu rahmatlarini eshitib turmasa qulog'i qichiydigan shaxsiyatparast va xudbin odamning katta basharasi hamda birovdan yordam ko'rdim deb, bir umr uning soyasidan chiqolmay, umri tasannolar aytish bilan o'tadigan madhiyaboz-muloyim-qo'rqoqlarning fojiasi ochiladi.

“Kamil Xorazmiyning sulh tuzishni so‘ragani” hikoyasi shoir iste’dodining yangi bir muvaffaqiyati, kamolot bosqichini ko‘rsatadi. Hikoyadagi mantiq kuchi, falsafa qudrati va she’r nafisligi fikrimizga dalil bo‘ladi. Sulh haqidagi taklif tarixiy sharoit taqozosi ekanligiyoq uning mantiq quvvatini oshiradi. Shoir xonga o‘z fikrini, sulh tuzish zaruratini bayon qilar ekan, dunyoning ko‘pgina ishlari biz o‘ylab ham ko‘rmagan ko‘pgina nafis sulhlar bilan yurib turganligiga ishora qiladi:



Sulh emasmi-yer va osmon muvosoligi,
Sulh emasmi-daryo borib quysa dengizga?!



Bir sulh borki-quyosh nuri yer bilan payvand,
Shundan tuproq uygʻoqligi, hayot borligi!
Bir sulh borki, unga ism Muhabbat erur,
Ikki dilning bir-birovga shundan zorligi!
Bir sulh borki qoʻl va tanbur oraligʻida,-
Bu birlikdan yangrar ajib soʻzsiz dostonlar!

Hikoyadagi xulosa oʻzining bugungi kunini ham yashamoqda. U bevosita Vatanimizning tinchliksevar siyosatiga bogʻlanadi va koʻp sonli dushmanlarimizga mangu eslatma boʻlib turadi.

Kitobda Xivaga taalluqli uchta oʻrin boʻlib, shulardan biri “Xivaq afsonasi”dir. Xalqda hazrati Nuh toʻfondan keyin qadam qoʻygan birinchi quruqlik hozirgi Xivaning oʻrni ekanligini hikoya qiluvchi bir rivoyat bor. Ana shu rivoyat afsonaga xizmat qilgan. Umuman, afsona yomon emas-u, lekin koʻpgina joylari ancha bolalarbop chiqib qolgan. Lekin shoirning maqsadi bolalarga afsona aytib berishdan iborat emasdir. Bu esa afsonaning xulosasida koʻrinadi. Yuksakdan qaraganda hozirgi Xivaning andozasi kemaga oʻxshashi, hatto oʻsha ulugʻ toʻfonni ham nimadir eslatishi gapiriladi. Shahar chekkasida mavjlanib yotgan, “qumlar ham oʻsha qadim Buyuk suvning izlari”, deyiladi.

Bu toʻgʻri. Afsona boʻyicha Nuh oʻz kemasida barcha jonzotlarni bir juft-bir juftidan saqlab qolgan edi. Hozirgi Xiva ham yillar va asrlar, zamonlar toʻfonlaridan oʻzining ulugʻ devorlari, hayratnaqsh minoralariyu gulhayrat gumbazlarini saqlab qolgan zamonlar ulkan kemasidir! Uning Nuhi esa ulugʻ inqilobimiz farzandi - zamonamiz kishisidir!

“Bir Xiva-ikki qaʻla”, “Kalta minor faryodi” rivoyat-lavhalari shoirning zamonamiz Nuh kemasi - Xiva haqidagi falsafiy mushohadalari samarasidir.

Odat-Deshon qaʻla, orzusi-Ichon!
Xalqimning ustivor ruhi-zoʻr daho,
Mangulik topgandir Ichon qaʻlada.
Uni buzmasin deb turfa-tur balo,

Qa'la tiklangandir Dishon-dalada.

Ota-bobolarimizdan qolgan oddiy g'ishtdan tortib ulkan minoralargacha, bir parcha devordan butun bir shaharlargacha, ularning barchasiga ajdodlarimiz manguiligining bir shakli sifatida qarash lozimligi shu bir noyob o'xshatmada bayon etiladi.

“Davronshohning suvrati” rivoyati bir ko'zi ko'r-u bir oyog'i kalta shohning suvratini chizgan uch rassom haqida hikoya qiladi. Birinchi rassom shohning “suvratini topib, ruhi”ni topolmagani uchun, ikkinchi rassom esa “ruhini topib suvratini” topolmagani uchun o'tib ketadi. Birinchi rassom realist, ikkinchisi madhiyaboz edi. Uchinchi rassom shohning suvratini shunday bir vaziyatda chizgan ediki, uning nogiron a'zolari zaruriy holatga xizmat qilib, juda yarashib tushardi. Shoh kalta oyog'ini tosh ustiga qo'yib, ko'r ko'zini qisganicha osmondagi g'ozlarni mo'ljallamoqda edi! Bu ming mohir va ming uddaburon bo'lsa, shunchalar qo'rqqoq va shunchalar o'z jonini qayg'urgan ham edi. O'quvchi birinchi rassomning tarafini oladi!

Omon Matjonning ushbu kitobi qanchadan-qancha “qirqinchi” afsonalarning paydo bo'lishiga turtki bo'lishi tabiiydir.

1979-yil. Toshkent

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

7 (28)
2025-yil, iyul.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 4,875 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22